

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI**

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

fakultet dekani

\_\_\_\_\_ f.f.d. **B.Abdushukurov**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi  
4-bosqich 403-guruh talabasi **Shamsiyeva Hurriyat Qulmurod qizining**  
**“Sab‘ai sayyor” dostonida fanlararo munosabat talqini** mavzusida yozgan

**B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I**

**Ilmiy rahbar**

\_\_\_\_\_ **H. Jo‘rayeva**

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi  
kafedrasi o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ f.f.n. **T.Matyoqubova**

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi  
kafedrasi dotsenti

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

O‘zbek adabiyotini o‘qitish  
metodikasi kafedrasi mudiri  
f.f.d. **Z.Mirzayeva**

\_\_\_\_\_ **N.Matkarimova**

ToshDO‘TAU qoshidagi akademik litseyning  
katta o‘qituvchisi

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

**TOSHKENT 2018**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti O‘zbek adabiyotini  
o‘qitish metodikasi kafedrasining 2018–yil 15-maydagi 26-sonli yig‘ilishi  
bayonnomasidan**

**KO‘CHIRMA**

**Qatnashdilar:** kafedra mudiri f.f.d. Z.Mirzayeva, ped.f.d., prof. R.Niyozmetova, f.f.n.dotsent T.Matyoqubova, f.f.n. G.Jo‘rayeva, f.f.n. H.Ahmedov, kafedra o‘qituvchilari: H.Jo‘rayeva, G.Tursunova, S.Qambarova, D.Qoraboyevlar.

**KUN TARTIBI:**

1. 403-guruh talabasi Shamsiyeva Hurriyat Qulmurod qizining 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha “Sab’ai sayyor” dostonida fanlararo munosabat talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi.

**TINGLANDI:** Bitiruvchi Shamsiyeva Hurriyat Qulmurod qizining “Sab’ai sayyor” dostonida fanlararo munosabat talqini” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan ma’lumot berdi. Talaba o‘z ma’ruzasida “Sabai sayyor”da fanlararo munosabat talqini va adabiyotning boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitishda qo‘llanadigan an’anaviy va innovatsion metodlar, dastur va darsliklarning tahlili, bitiruv malakaviy ishida qo‘llanilgan metodlar haqida so‘zladi. Bitiruv ishi natijalari va xulosalari yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bayon etdi.

**SO‘ZGA CHIQQILAR:**

Yig‘ilish raisi f.f.d. Z.Mirzayeva va a’zolar bitiruvchining ishi yuzasidan o‘zlarining fikrlarini bayon etdi va tegishli tavsiyalarni berdi.

Ushbu bildirilgan fikr-mulohazalarga muvofiq kafedra majlisida

**QAROR QILINDI:**

1. 403-guruh talabasi Shamsiyeva Hurriyat Qulmurod qizining 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha “Sab’ai sayyor” dostonida fanlararo munosabat talqini mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya qilinsin.

2. Bitiruv malakaviy ishiga f.f.n. dotsent T.Matyoqubova va ToshDO‘TAU qoshidagi akademik litseyning katta o‘qituvchisi N.Matkarimovalar taqrizchi qilib belgilansin.

Rais:

f.f.d. Z.Mirzayeva

Kotiba:

G.Tursunova

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	
<b>I.BOB. UZLUKSIZ TA'LIMDA INTEGRATSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI.....</b>	
1.1. Fanlararo integratsiya va uning ta'lim samaradorligida tutgan o'rni.....	
1.2. Mumtoz asarlarni o'qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish uchun mos usullarni tanlash mezonlari .....	
<b>II.BOB. "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH METODIKASI.....</b>	
2.1. "Sab'ai sayyor" dostoni tahlilida adabiyotni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish usullari.....	
2.2. "Sab'ai sayyor" dostonini fanlararo integrativ yondashuv asosida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish .....	
<b>III.BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI.....</b>	
3.1. Mavzu yuzasidan ochiq dars ishlanmasi.....	
3.2. Tajriba-sinov materiallari.....	
<b>XULOSA.....</b>	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	
<b>ILOVALAR (tarqatma materiallar, testlar, ochiq dars ishlanmalaridan namunalar)...</b>	

## KIRISH

Tarix hukmi shunga guvohki, xalqchil, insonparvar va yuksak san'at namunasi bo'lgan asarlargina davrlar sinovidan o'tib, yangidan yangi avlodlarga ma'naviyat va ma'rifat nurlarini taratib, ardoqli meros sifatida qadrlanadi. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy yaratgan bebaho badiiy durdonalar ana shunday xushbaxt taqdirga ega. Yana shu ham haqiqatki, buyuk obidalarni bunyod eta olgan umr bezagi – mutafakkirlarning har bir so'zi inson va insoniyat, hayot va jamiyat haqidagi qarashlari go'zallik, nafosat borasida bildirgan mulohazalari qimmatli va qadrlidir. Zero, ular pok qalb va ezgu niyatning, zukko aql va benazir teran shuurning ummonidan yuzaga kelgan bo'lib, g'oyat kuchli umumlashma xususiyatga ega. Shu bois Navoiyning har bir so'zi hozir ham purma'no hikmat bo'lib jaranglamoqda, hozir ham bizga ibrat va saboq bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-mayda e'lon qilingan "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmonida ham "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi" deb qayd etilgan edi. Mazkur universitetning buyuk bobokalonimiz nomi bilan atalishi ham ul zoti sharifning o'zbek xalqi ma'naviyati rivojiga qo'shgan hissalaridandir.

Alisher Navoiy uslubiy me'rosi undan keyin yashab, ijod qilgan bir necha yirik qalam ahli uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tamoqda. Lekin bu maktab faqat o'zbek yoxud turkiylar uchungina emas, balki bani bashar ichidan yetishib chiqqan so'z daholaridan tortib, o'ziga yarasha "ta'bi nazmi" bor shaxslarga ham taalluqlidir. Abdulla Oripov aytganidek, "Agar shunday deyish joiz bo'lsa, tub xususiyatlari bilan ulug' shoir asarlarining "qon gruppasi" umuminsoniy. Uni

alohida bir xalq yoxud bir necha millatga nisbat berish, ochig'i xato, u yer kurrasidagi barchaning ma'naviy-ruhiy hayotiga daxldordir"<sup>1</sup>.

**Mavzuning dolzarbligi.** Navoiy asarlari bag'rida jo bo'lgan milliy va umuminsoniy qarashlar, fikrlar har bir inson uchun ne qadar zarur va ahamiyatli bo'lsa, ularning zargarona ifodasi, tengsiz mahorat natijasi o'laroq, tarkib topgan go'zal shakli shu qadar jozibali, hayratlanarli. Ularni o'qigan kishi, agar tom ma'noda uni tushunish, anglash baxtiga musharraf bo'lsa, shoirning ulug' donishmandligi oldida lol qolsa, yozmishlari, badiiyati, ularning nafosati qarshisida dong qotadi. Shuning uchun adib asarlarining mazmuni, g'oyaviy jihatlari tadqiqi ne chog'liq dolzarb bo'lsa, ularning badiiyatini o'rganish, mahorat qirralarini ochib berish ham birdek zarur.

Buyuk istiqlol sharofati bilan biz o'z milliy qadriyatlarimizni xolis o'rganish, bobokalonlarimiz yaratgan o'lmas asarlarning jahon adabiyotidagi mustahkam o'rni to'g'risida baralla gapirish va tadqiqotlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ldik. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqdi. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan..."<sup>2</sup>

Birinchi Prezidentimiz mustaqillik sharofati bilan biz bosib o'tgan davrni sarhisob qilib, quyidagicha fikr bildirdilar: "Bugun mustaqil taraqqiyot yillarida boshimizdan o'tgan, oson kechmagan yillarimizni, amalga oshirgan ishlarimizni, erishgan yutuq va marralarimizni sarhisob qilar ekanmiz, hech shubhasiz, xolisona bir xulosaga kelishimiz tabiiydir. Ya'ni bundan o'n to'qqiz yil oldin yurtimizda erkin va mustaqil demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, iqtisodiyotimizni keskin va chuqur isloh etish, aholimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha qabul qilgan

---

<sup>1</sup> Хаққулов И. Абдиёт фарзанди. –Т.: Фан, 1990. –Б.57.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –Т.: Sharq, 1998. –Б.3.

azm-u qarorimiz to'g'ri ekanini bugun hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Buning isbotini, avvalo, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zi va oilasi, yaqinlari misolida, shahar va qishloqlarimiz, butun mamlakatimizning har tomonlama rivojlanib, obod bo'lib borayotgani misolida yaqqol ko'rishi mumkin. Buning tasdig'i sifatida hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qaramasdan, O'zbekiston dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlarini namoyon etmoqda"<sup>2</sup>.

Mustaqil O'zbekistonimiz yoshlari uchun bugungi kunda qulay sharoitlar eshigi ochildi. Hurmatli Prezidentimiz bu haqda juda ko'p ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlar. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni muhim qadam bo'ldi. Shular qatorida bitiruvchilarga o'z biznesini tashkil etishi uchun imtiyozli kreditlar berish bo'yicha banklarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar ham e'tiborga sazovordir. "Yana bir muhim masalani qayd etib o'tmoqchiman, - deb fikr bildirgan Birinchi Prezidentimiz, - hozirgi keskin raqobat sharoitida innovatsion texnologiyalar va ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega", - deb ta'kidlaydilar.

Shuning uchun adib asarlarining mazmuni, g'oyaviy jihatlari tadqiqi ne chog'liq dolzarb bo'lsa, ularning badiiyatini o'rganish, mahorat qirralarini ochib berish ham birdek zarur. Milliy ma'daniy-ma'rifiy yo'nalishda bitilgan ushbu asar ilmiy nuqtayi nazardan o'rganilishga mushtaq. Bu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilish darajasi.** Adabiyotshunosligimizda Navoiyning lirik va epik asarlari nisbatan keng tadqiq qilingan, adabiy-estetik qarashlari o'rganilgan. Ularning ayrimlariga to'xtalib

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi // O'zbekiston ovozi. 2010. 1-sentabr.

o‘tamiz. Shoir asarlarining badiiyatiga bag‘ishlangan talay maqolalar, bir qator risolalar yozilgan. Alibek Rustamovning “Alisher Navoiy g‘azallarida qofiya”<sup>3</sup> asarlarini shular qatoriga kiritish mumkin. Mutafakkirning falsafiy qarashlari yoritilgan asarlar ichida V.Zohidovning “Ulug‘ shoir ijodining qalbi”<sup>4</sup>, S.Olimovning “Navoiy va Naqshband”<sup>5</sup> asarlarini alohida ta’kidlash mumkin. Ijodkor asarlarida ijtimoiy qarashlar A.Abdug‘ofurovning “Navoiy satirasi”<sup>6</sup>, M.Oripovning “Alisher Navoiy gumanizmi”<sup>7</sup> kabi asarlarida tekshirilgan. Navoiyning adabiy, estetik qarashlarini A.Hayitmetov, H.Qudratullaev kabi olimlar tekshirganlar.<sup>8</sup> Shuningdek, Navoiy asarlari talqini va tahliliga bag‘ishlangan kitob va to‘plamlar ham bor.<sup>9</sup> Navoiy haqida o‘zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlar og‘zaki ijodida ko‘plab ertak, afsona, hikoyatlar yaratilgan. Bu jihatdan M.Jo‘rayev tomonidan tuzilgan “El desa Navoiyni...” kitobini eslash kifoyadir. Navoiyning asarlari turli davrlarda xattotlar tomonidan hurmat bilan ko‘chirildi. XIX asrning 70-yillarida O‘zbekistonda bosmaxona paydo bo‘lganidan keyin Navoiyning “Xamsa”, “Chor devon”, “Vaqfiya” va boshqa asarlari bir necha marta nashr etildi. Yevropaliklar XVI asrlardan boshlab Navoiy asarlari bilan tanisha boshlagan bo‘lsa-da, Navoiy ijodini o‘rganish asosan XIX asrda boshlandi. Fransuz sharqshunosi Katrmer 1841-yilda bosilgan majmuasiga Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” va “**Tarixi mulki** Ajam”ni kiritdi. Navoiy hayoti va ijodi, asarlari matnini o‘rganishda I.Sulton; she’riyatini o‘rganishda H.Sulaymon, M.Shayxzoda; tarjimayi holini o‘rganishda A.Qayumov<sup>10</sup>; Navoiy lirikasi, uslubi masalalari uning ijodi bilan bog‘liq turli masalalar bo‘yicha A.Xayitmetov; “Xamsa” bo‘yicha T.Jalolov, S.Hasanov, M.Afzalov, S.G‘aniyeva; Navoiyning she’riyati, tili bo‘yicha A.Rustamov; Navoiyning poetikasi bo‘yicha Y.Is’hoqov

---

<sup>3</sup> Rustamov A. Navoiyning badiiy maqorati. –T.: F.Gulom, 1979. –B.149.

<sup>4</sup> Zohidov A. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. –T.: Ўzbekiston, 1970. –B.12.

<sup>5</sup> Olimov S. Navoiy va Naqshband. –T.: Ўqituvchi, 1996. –B.146.

<sup>6</sup> Abdug‘ofurov A. Navoiy satirasi. –T.: Fan, 1966. –B.23.

<sup>7</sup> Arifov M. Gumanizm Alishera Navoi. –T.: Ўqituvchi, 1991. –B.67.

<sup>8</sup> Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy tanqidiy qurilishlari. –T.: Fan, 1939. –B.33.

<sup>9</sup> Alisher Navoiy: qazallar va sharhlar. –T.: Kamalak, 1991. –B.78.

<sup>10</sup> Qayumov A. Ishq vodiysi chechlari. –T.: Fan, 1985. –B.56.



va boshqalarning tadqiqotlari yaratildi. O‘zbek navoiyshunoslari safida N.Mallayev, A.Abdug‘afurov, S.Erkinov, B.Valixo‘jayev, R.Vohidov, N.Komilov, I.Haqqulov, S.Olim, N.Jumaxo‘ja kabi yetuk olimlarimiz ham bor.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifasi.** Alisher Navoiy ijodi har bir davr uchun eng muhim ilmiy manba sifatida keng tadqiq etiladi. Mutafakkir asarlaridagi insonparvarlik tamoyilini falsafiy jihatdan tahlil qilib, uni o‘rganish, qolaversa, yoshlar ongida inson qadrini, uning barcha ezgu fazilatlarini, ma‘nan boy bo‘lib yetishish g‘oyasini shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan.

**Tadqiqotning vazifalari:** Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganish orqali uning inson to‘g‘risidagi falsafiy g‘oyalarini tahlil qilish;
- Navoiy merosining yoshlar ma‘naviy tarbiyasidagi ahamiyatini ko‘rsatib berish;
- Mutafakkir asarlaridagi falsafiy g‘oyalar va ilmiy-nazariy bilimlarning o‘rni va ahamiyatini belgilash;
- Navoiy “Xamsa”sidagi “Sab‘ai sayyor” dostonining ta‘lim bosqichlarida o‘rganilishining samarador usullarini ko‘rsatib berish.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundaki, o‘zbek adabiyoti tarixini yoritishda, xalqimizni adib ijodi bilan yanada yaxshiroq tanishtirishda, “Sab‘ai sayyor” dostoni bo‘yicha nazariy ma‘lumotlarni egallashda bu ilmiy ishdan foydalanish mumkin.

**Bitiruv- malakaviy ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, III bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti.** Navoiyning “Sab‘ai sayyor” asaridagi fanlararo integratsiyani o‘rganish tadqiqotning obyekti hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa Navoiy asarlarining falsafiy mohiyatini anglash va uning bugungi kundagi ahamiyatini aniqlash bilan belgilanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy jihatdan yangilik darajasi.** “Sab’ai sayyor” dostonida fanlararo integratsiya masalasi birinchi marta ilmiy asosda o‘rganilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiri.** Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalarida darslik va qo‘llanmalar, shuningdek, maxsus kurs va tanlov fanlarining mazmun-mundarijasini yangi, ilmiy asoslangan metodlar bilan boyitishda muhim manba bo‘ladi.

Ta’lim bosqichlarida darslik va dars ishlanmalari yaratishda amaliy material sifatida xizmat qiladi. Adabiyot o‘qitish metodikasini o‘rganishga bag‘ishlangan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin bo‘ladi.

## I BOB. UZLUKSIZ TA'LIMDA INTEGRATSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

### 1.1. Fanlararo integratsiya va uning ta'lim samaradorligida tutgan o'rni

Ta'lim tizimida adabiyot fani alohida ma'no va mazmun kasb etadi. Bugungi globallashtirish jarayonida adabiyot o'qitishning uslubiy va tashkiliy muammolari atroflicha o'rganilib, qator yechimlari topilgan va amaliy tadbir etib kelinmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati ham yosh avlodni shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning uzviyligi hamda sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimida fanlararo integratsiya va uzviylikni ta'minlash muhim masalalardan biridir. Endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda, zerikarli darslar o'rniga qiziqarli darslarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdonlik, metodik mahoratga ega, mas'uliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta'limda moddiy baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmushini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov "Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q" asarida komil inson tushunchasiga aniq ta'rif berganlar. **"Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, o'z xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"**. Ta'lim tizimi va maktab oldiga maqsad qilib, ya'ni komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish masalasi qo'yildi.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning amaldagi holati

muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu muammoni ilmiy-nazariy va amaliy nuqtayi nazardan asoslab, o‘quv-tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, boshqarish, maqsadga erishish samaradorlikni oshirishning muhim omili deb hisobladi. Respublikamizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda adabiyot sohasiga kirib kelayotgan yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalar zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy ta’lim (shuningdek, o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi) mutaxassis kadrlar tayyorlashda bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik mahoratiga, ularni o‘qitishning yangi usullarini o‘zlashtirishlariga yetarli e’tibor berilmayotganligi ta’lim sifati samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asarida bu borada shunday deydi: “Ta’lim va ilm-fan davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvolini tanqidiy tahlil qilish lozim”<sup>11</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy modelining mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoniga samarali tatbiq etilishi xalq xo‘jaligidagi ishlab chiqarish obyektlari, ilmiy hamda o‘quv muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash imkonini beradi. Mazkur masalaning dolzarbligi xususida to‘xtalar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etib o‘tadi: “O‘zbekiston

---

<sup>11</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. –B.7.

innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tishi uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu – mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Integratsiya (lot. integratio-tiklash, to'ldirish, integer-butun so'zidan ) olingan bo'lib:

1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha;

2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni;

3) ikki va undan ortiq davlatning iqtisodiyotni o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Integratsiyaning quyidagi darajalarini belgilash mumkin:

1. Tematik (mavzuiy) integratsiya;

2. Muammoli integratsiya;

3. Konseptual integratsiya;

4. Nazariy intergratsiya.

- Mavzuiy integratsiyada ikki-uch xil predmet bitta mavzuni ochib beradi, darajani illyustrativ - tavsifiy deb atash mumkin.

Bitta muammoni har xil predmet imkoniyatlari bilan yechish, muammoli integratsiya bo'ladi.

Konseptual integratsiyada har xil o'quv predmetlarning vosita va uslublar yordamida bitta konsepsiya ko'rib chiqiladi.

Har xil nazariyalarning o'zaro falsafiy singishi nazariy integratsiya .

Misol uchun, adabiyot va informatikani bog'lash. Integratsiyalash kompyuter texnika vositalari yordamida nazariy ma'lumot kerakli taqdimotlar namoyishi o'tkaziladi. Mavzularni o'tayotganda farq va uyg'unlik ko'zga

tashlanadi. Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashda tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlari faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib turli fanlarni o'rgatish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi: boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida aniq tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanish qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Integratsiya jarayonini o'rganishda buyuk pedagoglarning fikrlari ham muhim sanaladi.

Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak".

Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondashib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak".

Integratsiya jarayonini o'rganishda I.Boguslovskiyning "Go'dakdan-olamga, olamdan-go'dakka" maqolasining ahamiyati katta. Unda aytilishicha: Bolalarning atrof-muhitni his qilishi, unga o'rganish va maktab ta'limida bu muhitni turli fanlarga sun'iy ravishda bo'linishi turli xil qarama-qarshiliklarga sabab bo'ladi.

XIX asr va XX asr boshlarida integratsiya g'oyasi ilg'or g'oyalar qatori qadrlanadi. XX asr boshlarida pedagogika yo'nalishida bir nechta qiziqarli ishlar bilimlarni integratsiyalash yo'lida olib borildi. Bu yo'nalishda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim sohasida ilg'or siljishlar ro'y berdi. Hozirgi kunda lug'atlarda integratsiya so'zining uslubiy ma'nosi ko'rsatilmagan. Lekin hammaga ma'lum lotincha so'z "Integratio" tiklanish, to'ldirish, "integrir" - bir butun ma'nolari bilan ikki ma'noda foydalanishga qabul qilingan.

1) Qandaydir qismlar elementlarni bir qilib birlashtirish.

2) Ikki yoki undan ko'p davlatlar bir turdagi ijtimoiy tuzumga ega bo'lgan bo'lsa, iqtisodiy yoxud madaniy jihatdan uyg'unlashtirish jarayoni.

Bir turdagi qism yoki elementlar mavjudligi va ularning bir maqsadga tabiiy bo'ysundirish imkoni va bir qator o'quv fanlari uslubidagi yaqinlik integratsiya atamasini aniqlashga asos beradi, ya'ni o'qitish, tarbiya qilish va o'quvchilarni ma'lum o'quv fanlarini o'zlashtirishni uyg'unlashtirish usullari haqidagi fan. Integratsiyani uslubiy hodisa sifatida tahlil qilib bergan, "Qanday qilib integratsiyalashgan darsni tashkillashtirish mumkin?" nomli maqola mualliflari I.Kalojvari va L.Pechnikova ta'kidlashlaricha: «Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul natijasida o'quvchilar ongida olamning faol va ko'p tomonli tasviri shakllanadi. O'quvchilar olgan bilimlarini amalda faol qo'llay boshlaydi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o'zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo'lgan munosabatini ravshanlashtiradi".

Maktabda mavjud hamma fanlar o'ziga xos integratsion imkonga ega. **Lekin ularning bir-biriga mos bo'lishi integratsiyalashgan kurslarning samaradorligi ko'p sharoitlarga bog'liq.** Shuning uchun yangi dastur yaratishdan oldin pedagoglar va uslubchilarga integratsiyaning imkoniyati va zaruriyati xulosa ishiga yordam beradigan vaziyatlarni hisobga olish kerak.

Buning uchun o'qituvchi sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasini oldin tahlil qilib, ularning ma'naviy xususiyatlarini, o'rganishga qiziqishlarini o'rganadi. O'quv faoliyatida mavjud bo'lgan qiyinchiliklar integratsiya usulidan foydalanish sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Ba'zi o'quvchilarning bir fandagi muvaffaqiyati ikkinchi fandan olgan bilim va ko'nikmalariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Ta'limni integratsiyalashtirish o'quvchilarda jo'shqinlik, fanlarni o'rganishga qiziqish hissini kuchaytiradi. O'quv fanlari bo'yicha bilim darajasini oshiradi. Ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o'quv materiallarining o'zaro tabiiy ravishda uzviylikda bo'lishini ta'minlaydi. Darsda

o'quvchilarda ongli qiziqish faoliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati rivoj topadi, ularda o'quv faniga nisbatan shaxsiy munosabatda bo'lish, ijodkorlik hissi shakllanadi. Integratsiyalashtirilgan darsda ta'lim-tarbiya uzviyligi ham bir butun holda amalga oshadi. O'quv fanlarini uzviylikda o'rganish o'quvchilar bilimni mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida o'quv-tarbiya jarayonining ham uyg'unlikda bo'lishini taqozo etadi. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o'rnatish ta'limni integratsiyalashning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Sohada axborot vositalarining muhim ahamiyat kasb etishi natijasida tarbiyada erishilayotgan yutuqlar tabiat, jamiyat, texnika sohasi moddiy olamda ham namoyon bo'lmoqda. Bu o'zaro ta'sir rivoji har bir fanning ichki tabiiy rivoji uchun ham zarur omil bo'lmoqda. Metodist B.Ziyomammedov va Sh.Abdullayevalar o'quv jarayoni texnologiyasi alohida olingan bitta darsga, bitta mavzuga yoki o'quv predmetining bir qismiga, butun o'quv predmetiga tuzib chiqilishi lozimligini ta'kidlab, uning 5 ta tamoyili borligini ko'rib o'tamiz.

Birinchi, muayyan dars, mavzu, qismdan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish;

Ikkinchi, darsni modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsad va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish;

Uchinchi, modul ichida test savollarini tuzib chiqish;

To'rtinchi, maqsadlarga yetish usullarini aniqlash;

Beshinchi - bir butunlik tamoyiliga asoslanib, dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklar va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish hisoblanadi. Integratsiya tafakkur o'stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasidir. Fanlararo aloqani adabiy asarlar tahlili darslarida tashkil qilish natijasida tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi, darsga qiziqishi ortadi.



Integrativ darslarni tashkil qilish orqali asarni tahlil qilish, munozara qildirish, mustaqil tarzda ijodiy mulohaza yuritishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qoidalashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi.

Integratsiya go'yoki bilim berishda zarur vositaga o'xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo'l bo'lib, u orqali o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi: adabiyot darslarini ona tili, vatan tuyg'usi, shuningdek, rasm, biologiya va mehnat fanlari bilan bog'lab o'qitish uchun modulli darsning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. O'quvchilarni ijod qilishga o'rgatish, izlanishga yo'naltirish, tasavvur, fantaziya hosil qilish, o'qitishning zamonaviy usullariga kiradi.

Fanlarni integratsiyalash muammosini o'rganish, tadqiq etishda shu narsa ma'lum bo'ldiki, fanni va ilmiy bilimni integratsiyalash jarayonining negizi moddiy dalilning birligi, ya'ni tabiat, jamiyat va uni anglashning o'zaro uzviyligidir. Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkuri rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak-atrofdan bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Maktablarda o'rgatiladigan fanlarning tarqoqligi maktab bitiruvchisida bir ko'rinishli (fragmentar) dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Hozirgi zamon ilm-fanida esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy fanlar integratsiyasiga moyillik yuqori turadi.

Maktab umumta'lim fanlarining tarqoq holda o'rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog'liqlikda o'rgatilmashligi o'quvchilar bilimni to'la bo'lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to'sqinlik qilib, o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradi. Olimlarimizning fikricha, integratsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi.

Bunday tushuncha ta'lim tizimida integratsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta'lim sistemasiga integratsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin.

Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlikni, voqealar uzviyligini tushunishni tabiatan anglab yetishga o'rgatadi. Shuni alohida hisobga olish kerakki, maktablardagi boshlang'ich sinflarda darslarning integratsion bog'lanishlari ilmiy jihatdan kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo'lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olimlarimiz o'rtasida bahsli masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Umumiy fanlar o'rtasidagi integratsiyaga nazar soladigan bo'lsak, masalan:

Ona tilini adabiyot bilan bog'lab o'qitishda o'quvchilar faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tafakkur qilish, faoliyat ko'rsatish bilan bilimlarni egallaydi, uning ongida paydo bo'lgan harakat tufayli tafakkuri rivojlanadi. Ma'lumki, o'zlashtirish jarayoni materialni his etish, anglash, bilish va malaka hosil qilish kabi holatlardan iborat. Fanlararo aloqa o'quvchilarda oldin o'zlashtirilganlarini yangi bilim bilan boyitishga, fakt va hodisalar mohiyatini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarni voqea-hodisalar to'g'risida mustaqil fikr yuritadigan, o'z fikrini erkin bayon etadigan bo'lishiga erishish uchun integrativ darslar tashkil qilishi, bilimlarni egallashga motivatsiya uyg'otishi zarur. Shundan so'ng she'rga mos rasm chizishlari so'raladi. So'ngra o'quvchilar chizgan rasmlarini og'zaki tasvirlab beradilar. Shu jarayonda ularning nutqi ham rivojlanadi. Berilgan topshiriq produktiv darajada bo'lib, o'quvchilar o'zlari tuzgan reja asosida fantaziya qiladilar. Produktiv darajali topshiriqlar didaktik ahamiyatga egadir. Chunki bunday topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar mantiqiy fikr qiladilar, topshiriqlarni tahlil qilish asosida xulosa chiqaradilar. Tasvirlash bu ko'z oldida namoyon qilish, adabiyot darsidagi tasvir vositalarini topish, izlash va ta'riflash demakdir. Ya'ni bunda tinglash, tasavvur qilish, tushunish, fahmlash, xotiraga joylash, o'zlashtirish kabi aqliy faoliyatlar ro'y beradi. Biror narsa haqida fikr-mushohada qilish aqliy zukkolikning yuqori bosqichidir. Aqliy zukkolik inson xotirasi va zehni bilan


bog‘liqdir. Integratsiya asosida darslarni tashkil qilishda aqliy zukkolikning har ikki bosqichi ro‘y beradi. O‘qituvchi topishmoqni aytganda eslab qolishda xotira ishga tushadi. Xotirani mustahkamlash va rivojlantirish azaldan ta’limning asosiy talabi bo‘lib kelgan. Zehn rivojlanishida ijod qilish muhim rol o‘ynaydi. Integrativ darslarni tashkil qilishda ijod qilish orqali o‘quvchilarning zehni rivojlantirish mumkin. Demak, integratsiya ijodkorlik, zukkolik, xotirani mustahkamlash, izlanish, tasavvur hosil qilish demakdir. Tasavvur hosil qilish natijasida ijodkorlik paydo bo‘ladi, ijodkorlik esa tafakkur rivojiga turtki beradi. Shuning uchun ham o‘quv fanlari orasidagi aloqani bilish, ta’lim jarayonida ana shu qonuniyatlarga asoslanish muhimdir. O‘quvchilar asarni tahlil qilish jarayonida voqea va hodisalarni, ularning izohi, isbotini yagona bir tizimga soladi, xulosa chiqaradi, umumlashtiradi, xayol va fantaziya qila oladi. O‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishini aniqlash uchun ma’lumotlarni qabul qilish darajasiga ko‘ra aniqlash mumkin. Buning uchun o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berish o‘rinlidir:

- > she’r tarkibidagi atamalarni aniqlash, ularning xususiyatlarini ta’riflash;
- > she’rni tashkil etuvchi qismlar orasidagi bog‘lanishlarni anglab yetish;
- > she’rda aks ettirilgan, ammo o‘quvchiga ma’lum bo‘lgan obyekt orasidagi bog‘lanishni aniqlash;
- > she’rni nasriy yo‘l bilan bayon etish, ilmiy xulosalar chiqarish kabilar talab etilishi lozim.

Bunday topshiriqlar o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi. Nazariy tahlil, amaliy kuzatishlar oshadi. Adabiyot darsini musiqa, matematika, botanika, rasm, ona tili kabi fanlarga bog‘lab o‘tish mumkin. Maqol kishi esida qoluvchi, o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga undaydigan janrdir. Shuning uchun ham lingvokulturologiya hamda ona tili darslarida undan foydalanish, uni bahs-munozaraga aylantirish, ma’nosini izohlatish kabilar foydadan holi emas.

*O‘zga yurtida sulton bo‘lguncha,*

*O'z yurtida cho'pon bo'l.*



Ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv **predmetlar aro** munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador

bo'lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra bilish va tushuna olishni shakllantirishdan iborat.

Shu tariqa uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlarimiz tabiatshunoslik obyektlarini "tabiat – fan – texnika – jamiyat – inson" uzviylik tizimida o'rganish tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning yagona metodologik asosi bo'lib hisoblanishini ko'rsatib berdi. Yangi didaktik tizimni ishlab chiqishda dunyoni yaxlit idrok etish, tizimli tafakkur va "tabiat – inson" tizimini aksiologik jihatdan baholash dastlabki ko'zda tutilgan maqsad bo'lib hisoblanadi.

Bunday yondashuvda o'qitishdagi ilmiylik tamoyili butunlay yangicha sifat kasb etadi. Biz fanlararo uyg'unlik masalasida xorij tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, xususan, Yaponiyaning boshlang'ich sinf maktablarida darsdan so'ng tashkil etiladigan to'garaklar muayyan bir fan yuzasidan bo'lmay balki, kasbga yo'naltirilgan to'garaklar tashkil etilib, unda o'qituvchi ma'lum bir she'riy parchani bolalarga yodlashga beradi, keyingi topshiriqda esa she'riy parchadan kelib chiqqan holda rasm chizishlari so'raladi, undan keyingi topshiriqda she'riy parchaga mos musiqa tanlashlari va uni qo'shiq qilib aytishlari so'raladi. Shu tariqa bolalarning qiziqishlari aniqlanadi. Bu topshiriqlar bolaning yoshidan va uning psixologiyasidan kelib chiqib tanlanadi. Bunday integratsiyalashgan mashg'ulotlarning natijasi o'quvchilar boshlang'ich sinfni tugatgan paytda qaysi kasbni tanlaganliklarida ko'rinadi va o'quvchilar ta'limni o'zlari tanlagan kasbga ixtisoslashgan maktablarda davom ettiradilar. Bizning taklifimiz ana shunday fanlararo uyg'unlashgan to'garaklarni bizning ta'lim tizimimizga ham kiritishni tavsiya qilamiz.

## **1.2. Mumtoz asarlarni o‘qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish uchun mos usullarni tanlash mezonlari**

Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari ta’lim sifatini belgilab beruvchi asosiy omillardir. 2004–2009-yillarda maktab ta’limini jonlantirish umummilliy dasturlarning qabul qilinishi ta’lim muassasalari moddiy-texnik zaxirasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish barobarida, ta’lim mazmunini yangilash, takomillashtirish kabi mas’uliyatli vazifani qo‘ydiki, bu borada xalq ta’limi tizimida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Amaldagi DTS va o‘quv dasturlariga tanqidiy nuqtayi nazardan yondashib, ularning yangi tahrirdagi loyihalari tayyorlandi.

Yangi tahrirdagi DTSning amaldagidan muhim farqli jihatlari yana shunday bo‘ldiki, pedagogikaning ta’lim va tarbiya birligi hamda fanlararo aloqa tamoyillariga keng qamrovda amal qilish imkoniyatlari yaratildi. Binobarin, fanlararo aloqa o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish vositasi sifatida chuqur bilim olish va uni amaliyotga izchil tatbiqini olish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Adabiyot maktab ta’limidagi barcha o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liq. Barcha fanlar yuzasidan bilganlarimiz til orqali bayon etiladi, til borliqni har tomonlama ifodalaydi, tilni bilmasdan fikrlab ham bo‘lmaydi. Shunday ekan, fanlararo aloqaning mavjudligi haqiqat. Shunday jihatlari inobatga olingan yangi tahrirdagi DTS asosida amaldagi o‘quv dasturi takomillashtirildi. Maktab ona tili ta’limi mazmuni izchil kurs sifatida ta’limda o‘qib tugatiladi. Shu ma’noda, o‘quv dasturini takomillashtirish jarayonida o‘rgatilayotgan mavjud grammatik mavzular tizimida putur yetkazilmagan holda yangi tahrirdagi DTSda inobatga olingan jihatlari singdirishga e’tibor qaratildi.

Integratsiyalashgan dars natijalari o‘qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo‘ladi. Fanlararo integratsiya - bir necha o‘quv predmetining bir-biriga taalluqli sohalarini ko‘rsatish emas, balki integratsiyalab o‘qitish orqali o‘quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir.

Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirish tezlashtiradi.

Ta'lim tizimi oldida o'quvchilarning axborot olish va madaniyatini qayta shakllantirish va rivojlantirish vazifalari turibdi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida o'qituvchining o'zi maslahatchi, yo'l ko'rsatuvchi, o'quv jarayonining boshqaruvchisiga aylanib boradi.

O'qituvchi axborot manbayi, tarqatuvchi funksiyalarini axborot texnologiyalari zimmasiga yuklaydi. Bunda bosh masala bilimlar olamiga kirish, bu olamning resurslaridan foydalanish va o'zlashtirishga bog'lanib qoladi. O'quvchi axborot ummonida yangicha qoidalarni o'rganishi, barcha o'quv fanlari kesimida axborot olishi, uni qayta ishlay olishi zarur bo'ladi. Ta'limda o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning nutq, so'z, tovush bilan bog'langan usullari ikkinchi darajaga tushib, o'qitishning tasavvur, shakl, rang, tasvir bilan bog'liq usullari birinchi o'ringa qo'ya boshlaydi.

Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrimaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur (Abdulla Avloniy). O'quvchilarning ma'naviy olamini boy, yaxshi niyatli, insoniy fazilatlar egasi qilib tayyorlashda ona tili va adabiyotga oid fanlarning o'rni beqiyos. Chunki boshqa fanlar o'quvchining aqliy qobiliyatini o'stirsa, ona tili va adabiyot fanlari uning qalbi, hissiyotlariga ta'sir etadi. Ona tili fani o'quvchini har bir hodisaga o'z shaxsiy fikri bilan yondashishga, nutqining ravon bo'lishiga xizmat qilsa, adabiyot fani hayotda yaxshi va yomonni farqlashga ham o'rgatadi<sup>12</sup>.

Adabiyot va ona tili darslarini jonli, boshqa fanlar bilan bog'lovchi o'quvchilarni ushbu fanga qiziqishi, uning sehrli olamiga olib kirishi osonlashadi. Har bir fanni boshqa fanlar bilan aloqada o'tish mumkin. Masalan, adabiyot darsini geografiya, tarix va tasviriy san'at fanlari bilan bog'liqlikda olib borish mumkin.

---

<sup>12</sup> Keldiyorov R. Adabiyot o'qituvchisi faoliyatining muhim qirrasini // Til va adabiyot. –T., 2009, 6-son, -B.13.

Mumtoz asarlarni o'qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish uchun mos usullarni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- *har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;*
- *fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha materiallar o'tiladigan mavzuga bog'lanishi shart;*
- *sinf o'quvchilarining faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash orqali bilimlarini aniqlash mumkin.*

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatidan tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o'quv respublikamiz kelajagiga ishonch-e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Umuman olganda, integratsiya darsi bir-biriga mos kelishi jihatdan puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Mumtoz asarlarga nazar soladigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'limning adabiyot fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida mumtoz asarlar quyidagicha berilgan.

Mumtoz asarlar tahlilida fanlararo integratsiyani ta'lim jarayonidagi predmetlarning o'zaro bog'liqligi asosida ba'zi bir ilmiy-nazariy masalalarni yechish usuli sifatida talqin qilar ekanmiz, bunda tizimlashtirishning predmetli asosini va mantiqni sezamiz.

Adabiyot fani bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari va mumtoz asarlarga mos kompetensiyalari bor.

**1. Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (*tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish*).

**B1+**

o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari janr xususiyatlarini ajrata oladi;



musiqa va rang-tasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qiladi va uni soʻz bilan ifodalay oladi;

adabiyot va uning muayyan davri, janri haqida keng tushuncha, tasavvurlarni tushuntira oladi;

turli janr va hajmdagi 14–18 ta sheʼriy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

Taʼlimning turli bosqichlarida oʻrganish uchun saralab olingan asarlarga qoʻyiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yoʻnalishi, oʻquvchi shaxsining yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda uning kamoloti uchun koʻrsata oladigan ijobiy taʼsiri, milliy va umuminsoniy gʻoyalar uygʻunligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan oʻrni singari belgilar asos qilib olinadi.

Badiiy asarlarni oʻrganish jarayonida oʻquvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi nazarda tutiladi.

### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

#### ***Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:***

##### **A2**

shaxs sifatida maʼnaviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-maʼnaviy ehtiyojga aylantira olish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni eʼzozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam oʻqish va oʻrganish, xulosa chiqarish, ibrat olish; oʻz xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, oʻzini nazorat qila bilish, ogʻzaki va yozma matnlar mazmuniga toʻgʻri baho bera olish.

#### ***Milliy va umummadaniy kompetensiya:***

## **A2**

Badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

## **A2+**

Badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to'g'ri tushunish va talqin qila olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ay olish hamda tushuntirib bera olish.

Umumta'lim maktablarida adabiyot fani 5-sinfdan boshlab, ya'ni yuqori sinf o'quvchilariga o'tila boshlaydi. Boshlang'ich sinflarda yosh va bilim salohiyati hisobga olingan holda, adabiyot fani doirasidan chiqmagan holda yengilroq ma'lumotlar berib borilgan bo'lsa, yuqori sinflarda bu ma'lumotlarning ko'lami kengayib, murakkablashib boradi.

Adabiyot darslarida mumtoz asarlar yuzasidan bilimlarni chuqurlashtirish va o'quvchilarning faolligini oshirishda fanlararo integratsiyani amalda qo'llash uchun ta'lim tizimidagi barcha fanlarning adabiyot bilan bog'liq ma'lumotlarini tanlab olishda materiallarning o'zlashtirilishiga, adabiy ta'limda o'rganilayotgan mumtoz asarning boshqa fanlar bilan bog'liqligini amaliy jihatdan isbotlay olishga va ana shu bog'liqlikni ta'minlashda bevosita ilmiy mantiqqa, davr bilan hamohangligiga e'tibor qaratish zarur.

## **II.BOB. “SAB’AI SAYYOR” DOSTONINI O’RGANISHDA FANLAR ARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH METODIKASI**

### **2.1. “Sab’ai sayyor” dostoni tahlilida adabiyotni boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish usullari**

Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor” deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramoni Bahrom bo‘lib, tarixiy shaxs sifatida Eronning sasoniy hukmdori Varaxran V (420 – 438-yillarda podsholik qilgan) bilan bog‘liq. Bu hukmdor qulon (yovvoyi kiyik)ni ovlashga nihoyatda o‘ch bo‘lganligi uchun xalq orasida Bahrom Go‘r (qulon) laqabi bilan shuhrat topgan. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib, jang-u jadallar homiysi sifatida keladi. Bahrom timsoli dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sida tasvirlangan. “Shohnoma”da Bahrom Go‘r haqidagi voqea dostonning faqat bir faslini tashkil etib, unda Bahromning tug‘ilishi, taxtga chiqishi, mamlakatni idora qilish tadbirlari, ov vaqtida o‘z kanizagi Ozoda bilan to‘qnashuviga doir voqealar tasvirlangan. “Shohnoma”dagi Bahrom Go‘r va uning kanizagi orasidagi bu to‘qnashuv lavhasi Nizomiy tomonidan qayta ishlanib, mashhur “Haft paykar” dostoni vujudga keladi. Nizomiy Bahromning kanizak bilan bog‘liq hikoyasini qoliplovchi hikoya qilib olib, unga 7 hikoyat kiritadi. Nizomiy asaridan keyin 200 yil o‘tgach, Xusrav Dehlaviy unga javob tarzida “Hasht behisht” dostonini yaratib, 7 hikoyatni hind eposidan oladi<sup>13</sup>. Turkiy tilda birinchi bo‘lib bu mavzuni Alisher Navoiy qalamga oladi va o‘z dostonini “Sab’ai sayyor” deb ataydi<sup>14</sup>. “Sab’ai sayyor” dostoni 38 bob, 5009 baytdan iborat bo‘lib, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi. Doston muqaddimasi an’anaviy hamd bilan

---

<sup>13</sup>Xayitmetov A. Navoiy dahosi. –T.: Fan,1970. –B.62.

<sup>14</sup>Adabiyot gulshani. –T.: Sharq, 2013. –B.23.

boshlanadi. Navoiy Allohni olamning yaratuvchisi sifatida madh etar ekan, dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e'tiborni qaratib, iltizom (bir soʻzni biror parchaning barcha misra yoki baytlarida qoʻllab, shu soʻzning muhimligini taʼkidlash) badiiy san'ati vositasida falakning yetti qavat ekanligi, yetti gumbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga boʻlingani, yetti koʻk, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi. Shuningdek, Bahrom va Dilorom soʻzlarini asl va majoziy maʼnolarda qoʻllab, sayyoralar olami, dunyoning yaratilishi haqida oʻz falsafiy qarashlarini bayon qiladi, olamning yaratilishini tasavvufdagi vahdat ul- vujud falsafasi asosida bayon qiladi:

*Ishq sensen dogʻi-yu oshiqsen,*

*Yana maʼshuqluqqa loyiqsen.*

*Ayni maʼshuqluqda jilvai zot,*

*Oʻzini koʻrgali tilab mirʼot.*

*Husnunga har dam oʻzga surat oʻlub,*

*Koʻzgu takrori ham zarurat oʻlub.*

*Necha husn ichra jilva zohir anga,*

*Koʻzguluk aylabon mazohir anga...*

*Sensen-u sendin oʻzga xud nima yoʻq,*

*Gar koʻrunsa sen oʻlgʻung ul nima oʻq.*

Dostonning 7-bobi “Hazrat shayxulislom mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy” madhiga bagʻishlangan. Navoiy uni fazl koni-yu ilm daryosi deb atar ekan, ustozini arab tilidagi bilimdonligi jihatidan “Kofiya” asarining muallifi Ibn Hojibga, tafsir ilmida yuzta Ibn Hojarga, fiqh ilmida Imomi Aʼzamga oʻxshatadi. Jomiyning bu sohalarda yaratgan asarlari, devonlari va dostonlarining nomlarini keltiradi. 8-

bob salaflarning nuqsonlari haqida bo‘lib, shoir bob sarlavhasida ustozlar asarlariga mulohaza bildirayotgani uchun uzr so‘raydi. Navoiy bu bobda doston yaratishdan oldin tush ko‘rganini, tushida 7 gumbaz, 7 gumbaz ichida 7 xil rangdagi mutasaddiyni ko‘rganini, shu yerda 7 kun yurib, 7 afsona tinglaganini, bir mo‘ysafid unga avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni so‘raganini, uyqudan uyg‘ongach muabbir (tush ta’birchisi) aytgan dalillardan so‘ng doston yozishga kirishganini aytadi. Shundan so‘ng o‘zigacha yozilgan Bahrom haqidagi dostonlarni sinchiklab o‘qib chiqqanini ta’kidlab, ustozlarning hurmatini o‘z o‘rniga qo‘ygan holda ularga uchta e’tiroz bildiradi:

*Biri bukim yo‘q anda moyayi dard,*

*Qildilar ishq so‘zidin ani fard.*

Shoir fikricha, oldingi xamsanavislarning birinchi aybi dard-u g‘amga yetarlicha ahamiyat bermasdan, uni ishqdan xoli tasvirlaganliklaridadir.

*Yana biri bukim anda ba‘zi ish,*

*Zohiran nomunosabat tushmish:*

*Bo‘yla tuhmatki, aysh uchun Bahrom*

*Yasadi yetti qasr surgali kom.*

*Yetti iqlim shohidin yeti qiz,*

*Har biri lutf-u husni g‘oyatsiz...*

*Uyqu komin olurg‘a mastona,*

*Sho‘xlarg‘a buyurdi afsona...*

*Anga xud g‘aflat o‘ldi da‘bu sifat,*

*Uyqusig‘a fasona ne hojat?*

Bahromning ayshi uchun yettita qasr qurilishi, yetti malikaning o‘zi mastlikdan g‘afolat holatiga yetgan shohni uxlatish uchun afsonalar aytishlari asossiz, deydi Navoiy. Buning ustiga, agar afsona aytish zarur bo‘lsa, ulardan boshqa qissaxon yo‘qmidi degan savolni ham qo‘yadi. Saloqlarning uchinchi kamchiliklari dardsiz va nodon kishining sarguzashtlarini ko‘rsatishni maqsad qilib olganliklarida edi:

*Bo‘yla nodon uchun yozib avsof,*

*Anga qilgaylar o‘zlarin vassof.*

Bob so‘nggida Navoiy g‘oyat kamtarlik bilan o‘zini saloqlarning faqir shogirdi deb atab, men go‘yo pashshadek bo‘lib, fil ishini qilmoqchiman, osmon tomiga narvon, quyoshga shamdon yasamoqchiman, o‘rgimchak ipidan kamand qilib, ajdahoni tutmoqchiman deydi va Allohdan doston yozishda madad so‘raydi. 9-bob – Sulton Husayn Boyqaro madhi haqidadir. Bu bobda Navoiy falakdagi barcha sayyoralarga birma-bir murojaat qilib, ularni o‘z hunarlaridan biroz tinmoqqa chaqiradi, shoh madhida qalam surmoqchiligini aytadi. Shohning ikki tomonlama xon avlodi ekanligini, ulug‘ otasi Chingizxon, onasi Alanquvo ekanligini aytadi. Navoiy Husayn Boyqaroni cheksiz saxovat, chumoliga ham marhamatli adolat egasi deya ta’riflab, adolat bobida hatto Anushervon ham uning oldida xijolat chekadi deb yozadi: Anda Nushirvon kerak boqqay, Boshini erg‘atib ovuch qoqqay. Chun qilib yod o‘z adolatidin, Mutag‘ayyir bo‘lub xijolatidin. 10-bob – Bilqisi Soniy – Xadichabegim madhiga bag‘ishlangan bo‘lib, Navoiy talmeh san’ati vositasida Xadichabegimni payg‘ambarlar ayollari Sorai Uzmo (Ibrohim payg‘ambarning rafiqalari) va Xadichai Kubro (Muhammad (s.a.v)ning ayollari)ga o‘xshatadi. Navoiyning yozishicha, uning go‘zalligidan sunbul va nargis gullari tashvishda, nargis uyatda. Shuningdek, Navoiy Xadichabegimning ikki farzandi Muzaffar

Mirzo va Shoh G‘arib Mirzo (shoir G‘aribiy) haqida ham to‘xtalib o‘tib, ularni ikki saodatli yulduz, ularning onasini oy-u quyoshga o‘xshatadi:<sup>15</sup>

*Oy-u kun yo‘q agarchi monanding,*

*neki sa‘d axtar ikki farzanding.*

“Sab‘ai sayyor”ning muqaddimasida shoir tushida yetti gumbaz ko‘rgani, yetti gumbazda yetti hikoya eshitgani va shular dostonga asos bo‘lganini badiiy jihatdan ifodalaydi<sup>1</sup>.

“Sab‘ai sayyor” dostonining sakkizinchi bobida Navoiyning tushi keltirilgan. Shoir e‘tiroficha, tushida go‘zal bino, unda mavjud bo‘lgan yetti gumbazni ko‘radi. Har bir gumbaz o‘zgacha rangda. Unda yettita mutasaddi kishi bo‘lib, kiygan kiyimlari gumbaz rangida edi. Birinchi gumbaz qora rangda, ikkinchi zar - oltin rangli, uchinchi yashil, to‘rtinchi “gulfom” – gul rangli – qizil, beshinchi ko‘k, oltinchi jigarrang, yettinchi oq rangda edi. Har bir koshonada turli kishilar maqom tutgan edi. Har kun bittasining xonadonida bazm bo‘lardi. Dono, aqlli kishilardan biri bir afsona aytib beradi. Shoir ularni zavq bilan tinglab, yodda saqlardi. Shu asnoda uning yoniga “xizrvash pir” keladi. Unga bu voqealarning ma‘nosini anglagan-anglamaganini so‘raydi.

*“Yetti afsonakim, sanga dedilar,*

*Yod tutgung borini to dedilar.*

*Senki mundoq ajab safar qilding,*

*Bu g‘aroyib sari nazar qilding.*

---

<sup>15</sup> Иброҳим Хаққул. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 10-жилд. –Т.: Фан, 1976, –Б.143 (Бундан кейин мазкур нашрдан олинган мисоллар саҳифаси қавс ичида кўрсатилади).

<sup>1</sup> Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. –Т.: Fan, 1974. –Б.214.

*Kayfiyat neni aylading mafhum,*

*Bo'ldim-u bu ish haqiqati ma'lum".*


Alisher Navoiy "Xamsa"ning 4-dostonini yozishga fursat yetganini anglab yetadi. Bu tushning ta'birini tushungan Navoiy tezda dostonni yozishga kirishdi.

Asosiy voqealar o'n ikkinchi bobdan ibtido topadi. Yetti iqlim shohi bo'lgan Bahrom ov qilib yurib, rassom Moniyni uchratib qoladi. Moniy Chinda tengi yo'q bir go'zal Dilorom haqida xabar berib, uning o'zi chizgan suratini shohga taqdim etadi. Shoh suratni ko'rishi bilan Diloromga oshiq bo'lib qoladi va Chin mamlakatining bir yillik xirojini to'lab, qizni saroyga keltiradi. Shundan keyin Bahrom qizga butunlay mahliyo bo'lib, davlat, mamlakat ishlarini unutadi. Firdavsiy "Shohnoma"sida tasvirlanganidek, ovda kiyik hodisasi yuz beradi. Dilorom Bahromning merganlik mahoratini "mashqning natijasi" deb aytadi. Shoh mastlikda qizning oyoq-qo'lini o'z sochlari bilan bog'lab, biyobonga tashlab kelishni buyuradi. Ertasi g'azab va mastlik tarqab, afsuslanganidan keyin uni o'zi borib izlaydi, lekin topolmaydi. Hijron azobidan o'zini butunlay yo'qotadi. Shohning ahvoli og'irlasha boradi. Navoiy bu o'rinda Shoh Bahromda endi chin ma'noda oshiqlik sifatlari paydo bo'layotganiga e'tibor qaratadi, zero, ruhiy iztiroblar va hijron dardi ishqning ortishiga sabab bo'ladi. Saroy ahli tashvishga tushadilar. 400 hakim va tabib to'planib ikki yil davomida shohni davolaydilar. Shoh biroz o'ziga kelganday bo'ladi. Maslahat bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo'l ustida quriladi. Rassom Moniy saroyning har birini alohida bir rang bilan bezaydi. Bahrom ularni tomosha qilar ekan, kasali tuzala boshlaydi. Yetti rangdagi yetti qasr bitgach, yetti iqlim shohining yetti qizi Bahrom bilan nikohlanadi. Yetti qasrning har biri yetti sayyoradan birining rangiga mos bo'lib, haftaning shu sayyora homiy hisoblangan kuniga xos edi. Yetti qasr tasvirini o'qir ekanmiz, Navoiy har bir qasrdagi shoh, malika va musofir hamda jihozlar tasvirini berishda ranglarning turfa xil nomlanishlaridan ustalik bilan foydalanganiga guvoh bo'lamiz.



Adabiyot darslarida mumtoz asarlar yuzasidan bilimlarni chuqurlashtirish va o'quvchilarning faolligini oshirishda fanlararo integratsiyani amalda qo'llash uchun ta'lim tizimidagi barcha fanlarning adabiyot bilan bog'liq ma'lumotlarini tanlab olishda materiallarning o'zlashtirilishiga, adabiy ta'limda o'rganilayotgan mumtoz asarning boshqa fanlar bilan bog'liqligini amaliy jihatdan isbotlay olishga va ana shu bog'liqlikni ta'minlashda bevosita ilmiy mantiqqa, davr bilan hamohangligiga e'tibor qaratishga harakat qildik.

Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostonida turli fanlar kesishmasini ko'rishimiz mumkin.





Лубъати хондоду чинийван  
 Дабди жонбаху сунбули дилкан.  
 Хулласи ойдек айлабон шабгун.  
 Дурбар ул хула узра кавнабун.  
 Тахту рахтини айлабон мушкин.  
 Мушик уза ер тутуб гаволаи чин.  
 Чош, Индин, чин губи — язани цель.  
 Чи ос витайсая гавель.  
 Час в одевини номном:  
 «Звезда-жемчуга на нем»  
 «мускуса на трон взон»  
 «троне водарилася»

DINSHUNOSLIK

- I, II, IX BOB
- Ey xudovandlar xudovandi,  
Yo'q xudoliqda kimsa monandi.

TIBBIYOT

- XXII
- Choh ichinda Suhayl edi betob,  
Holini za'f qilmish erdi xarob.
- Bor edi oncha mehnati bir yon,  
Mehri gulchehr furqati' bir yon

IQTISOD

- XII
- Kishvaridin ketardi chun toroj,  
Yetti yillik maof tutti xiroj



Жисилва квалди ингори румий чохр.  
 Сарин ости ара ишчуним жохр.  
 Исоми дур ичра бодан асфар.  
 Фозил ичра кай иш олар.  
 Тилча хур сори уфди ошондилек.  
 Шехза гуноба аро тугондилек.  
 Кравини-румийка вкюдит в дом.  
 «на — как солнце в небе золотом,  
 т в нестом кайе — востом ни»  
 «чани в владени заключено»  
 «на блеском неходил»  
 «как бы ниль»

matematika

- I, II, IX BOB
- Yetti afsona borchasi dilband,  
Ikknisi bir-biriga yo'q monand.

astronomiya

- I X BOB
- Har lagan durji kavkabafruzi,  
Kavkabi gavhari shabafruzi.

chizmachilik

- IX BOB
- Chekting etganda dahr bunyodin,  
Yetti gunbad sipehri minodin,



Жилвагар бунди сарин саборанг,  
Айланган ышкытын чыны рынг,  
У-зи сабуу табасуун шалары,  
Хуи хуруу саба тар эруу ширини.  
"Сладкой веткой губкою вошла,  
сладостной улыбкою вошла:  
"а — какар невинно, ете"  
короши, когда "

### siyosat

- IX ,X BOB
- El bu ishdin shikoyat aylar edi,  
Har kishi bir hikoyat aylar edi.

### geografiya

- Har bir bobda uchraydi
- Rum-u Chin bo'ldilar anga mahkum,  
Balki xoqoni Chin-u qaysari Rum.

### jismoniy tarbiya

- XIII BOB
- Dedi: «Har kim bir ishni varzish etar,  
Ish kamolini ko'r, ne yerga yetar!»



Сарин гулмакхр яндин истибоб,  
Гуз кибн борти дикти худдан ош,  
Дастн гулранг хуз зутуб ором,  
Ажонн далай ичра бодин гулфром,  
Одежда шахская была красна,  
"и цвета розы попросил вина,  
что его принцесса нарцисс"  
"чужак был розовый "

### PSIXOLOGIYA

- XVI BOB
- Mo'r etar topsa ajdaho yanglig',  
Shohni zor etar gado yanglig'

### MUSIQA

- XXVI BOB
- San'atim anda soz cholmoq ishi,  
Bilmayin men kibi ishinni kishi.

### TASVIRIY SAN'AT

- IX BOB
- Yetti gunbaz agarchi minorang,  
Yetti afsona lek rangor-rang.

“Sab’ai Sayyor” dostonida ko‘plab fanning adabiyot bilan integrativ munosabatga kirishganini ko‘rishimiz mumkin. Asar tahlilida fanlararo integratsiyadan foydalanish o‘quvchilar bilim doirasining har tomonlama moslashishi va kasbiy qiziqishlarini takomillashishiga, amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

Adabiyot o‘qituvchisining mumtoz asar tahliliga tayyorgarlik ko‘rishida metodik usullarni tanlash uning o‘zaro almashinuvini didaktik maqsad bilan muvozanatlashtiradi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilar faolligini yuqori darajada ta’minlashga sharoit yaratadi. To‘g‘ri qo‘llanilgan usullar mumtoz asarga o‘quvchilarda qiziqish va muhabbatni kuchaytiribgina qolmay, asar tahliliga oid ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga boshqa fanlardan olingan bilimlarni xotirlash orqali ularni yanada chuqurlashtiradi. Mumtoz asarlar tahlilida fanlararo integratsiyadan foydalanish o‘quvchilar bilim doirasini har tomonlama kengaytirishi va kasbiy qiziqishlarini takomillashishiga, amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

## **2.2. “Sab’ai sayyor” dostonini fanlararo integrativ yondashuv asosida o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish**

Bilamizki, bugungi yoshlar kuchli axborot oqimi ostida voyaga yetmoqda. Fan-texnika rivojlangan, axborotlashgan jamiyat bag‘rida ulg‘ayib, ularning to‘liq imkoniyatlaridan xabardor yoshlarning didi, dunyoqarashi bundan o‘n yil oldingi yoshlarning estetik talablaridan tubdan farq qiladi. Bu tezkor rivojlanishlar ichida voyaga yetayotgan bola kitobga termulishdan ko‘ra, tez va oson ma‘lumot olishni ma‘qul ko‘rmoqda. Bu esa o‘qituvchining, xususan, adabiyot o‘qituvchisining zimmasiga juda katta mas‘uliyatli vazifalarni yuklaydi. Ana shunday sharoitda o‘quvchilar qalbida kitobga, xususan, adabiyotga nisbatan mehr uyg‘otish juda katta mehnatni talab qiladi. Yuqori sinfga endigina qadam qo‘ygan 5-sinf bolasi mumtoz asar haqida endigina tasavvur hosil qilayotgani, bu olam uning uchun boshlang‘ich sinfdagi kabi oddiy emas, balki anchayin murakkab ekanligini hisobga olgan holda rejalar tuzish, bu rejalar asosida bola ongida bu sohaga mehr uyg‘otish, uni bu olamga yetaklab kirish o‘qituvchining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Aslida bolada adabiyotga bo‘lgan mehr avvalroq shakllanadi, buvisidan eshitgan ertaklari hatto adabiyotga taalluqli ekanligini ham bilmaydi. Bola boshlang‘ich sinfda ham yodlagan she‘rlarini aynan adabiyotshunoslikka taalluqli ekanligini bilmaydi. Albatta, maktabda adabiyot darslarini tashkil qilishda, o‘qituvchi shaxsi yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu borada so‘z ketganda, quyidagi fikrlar ahamiyatlidir: O‘qituvchi shaxsiyatiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qitayotgan predmetni chuqur bilishi, uning metodikasini chuqur o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi, bolalarni shu predmetga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, har bir dars jarayonini tashkil qilayotgan pedagog, avvalo, shu mavzu haqida mustaqil tayyorgarlikka ega bo‘lishi, tashkillashtirilayotgan darsning xayoliy strukturasi

yarata olishi darkor, shundagina dars har tomonlama mukammal bo‘lib, ko‘zlangan natijani berishi mumkin.

Mumtoz asarlarni integrativ yondashuv asosida tahlil qilishda adabiyot darslarida yozuvchi hayoti va ijodi, shuningdek, mumtoz asarlarni o‘rganishda ifodali o‘qish mashg‘ulotidan foydalanish zarur. Mumtoz janrlardagi adabiy asarlarni ifodali o‘qish qoidalariga binoan ravon nutqda, ifodali tushunarli va jozibali tarzda o‘qish yaxshi samara beradi. Asarni ifodali o‘qiyotgan o‘quvchi shu asarning mazmunini tinglovchiga yetkazishga, undan badiiy zavq olishga ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyot darslarida hamisha ifodali o‘qishdan foydalaniladi. Agar dars ifodali o‘qish sifatida tashkil etilgan bo‘lsa, bu metod sifatida namoyon bo‘ladi. Agar dars ma’lum asar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lsa, darsda AKTdan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Ayniqsa, bugungi axborot texnologiyalari taraqqiy etgan davrda o‘quvchilarning adabiyot faniga, badiiy adabiyotga qiziqishini oshirish va ularda kitobxonlikni tarbiyalash o‘qituvchidan yuksak dunyoqarash bilan birga adabiyotning boshqa fanlar bilan bog‘liq tarzda o‘rgatishni talab qilmoqda. Mumtoz asarlarni o‘quvchi yaxshiroq tushunishi uchun ularga faqatgina nazariy bilimlarni ifodali o‘qib berib kifoyalanmasdan o‘quvchilarga mumtoz asarlar yuzasidan audio, video yoki taqdimot namoyish etish mumkin.

Bizga ma’lumki, inson xotirasi ma’lumotlarni 2 xil xotira orqali yaxshiroq eslab qoladi:

birinchisi – eshitish xotirasi bo‘lib unda inson axborotning 30 foizini eslab qoladi;

ikkinchisi – ko‘rish xotirasi bo‘lib, bu xotirada 60 foiz ma’lumot saqlanib qoladi. Mumtoz asarlarni o‘qitishda darslikda keltirilgan ma’lumotlar asosida video yoki audio variantini ishlab chiqish ham yaxshi samara beradi.

Buni Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni misolida ko‘rib chiqamiz. O‘qituvchi bu asarni o‘quvchilarga tushuntirishda qiyinchilikka duch kelishi tabiiy, chunki asar tili hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ancha yiroq, shu sababli o‘qituvchi asardagi so‘zlar lug‘ati bilan ishlaydi. Odatda lug‘atdagi so‘zlar yodlashga beriladi, bu usulning samarasi ham yaxshi, biz esa biroz boshqacharoq usulni tavsiya

qilmoqchimiz, ya'ni dostonidagi so'zlar lug'atini o'sha so'zlarga mos tasvirlar bilan ko'rsatib tushuntirishni taklif etamiz, masalan:



Bu lugʻatlarni rasmlari bilan keltirish, oʻquvchi xotirasida yaxshiroq qolishiga yordam beradi va bu jarayonning oʻzida ham adabiyot bilan tasviriy sanʼatning bogʻlanganini koʻrishimiz mumkin.

Adabiyot oʻqituvchisining mumtoz asar tahliliga tayyorgarlik koʻrishida metodik usullarni tanlash uning oʻzaro almashinuvini didaktik maqsad bilan muvozanatlashtiradi, bu esa oʻz navbatida oʻquvchilar faolligini yuqori darajada taʼminlashga sharoit yaratadi. Toʻgʻri qoʻllanilgan usullar mumtoz asarga oʻquvchilarda qiziqish va muhabbatni kuchaytiribgina qolmay, asar tahliliga oid ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga boshqa fanlardan olingan bilimlarni xotirlash orqali ularni yanada chuqurlashtiradi.

Shu vaqtgacha anʼanaviy talimda oʻquvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga oʻrgatilgan boʻlsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini oʻzlari qidirib topishlariga, mustaqil oʻrganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqarishga oʻrgatadi. Oʻqituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yoʻnaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Biz taklif etmoqchi boʻlgan usulda ham oʻquvchi xulosani oʻzi chiqaradi. Bunda “Sabʼai sayyor” dostoni asosida videofilm yoki multfilm ishlashni taklif qilamiz, chunki oʻquvchi oʻzi oʻqigan hikoyatni harakatlar asosida multfilm yoki videofilmda koʻrsa, asarni yaxshiroq tushunishiga yordam beradi va xulosani oʻquvchining oʻzi chiqaradi.

Alisher Navoiyning purhikmat soʻzlari, soʻnmas asarlari taʼlimning barcha bosqichlarida oʻtiladi, shu jumladan, “Sabʼai sayyor” dostoni ham taʼlimning 7-sinf darsligiga kiritilgan boʻlib, falsafiy va ijtimoiy mushohadaga boy asar boʻlganligi uchun 3 soat vaqt ajratilgan. Darslikda “Sabʼai sayyor” dostonidan olingan parcha - “Mehr va Suhayl” hikoyasi keltirilgan. Asardagi voqelik shunchaki toʻqima yoki uydurmalar emas, balki xalqning oʻziga xos mentallik xususiyatlari va madaniy qadriyatlarini badiiyat zamirida aks ettirgan boʻlib, bular oʻquvchilarning oʻzligini anglashga undaydi. Yuksak badiiy asarlarni oʻqib oʻrganish jarayonida oʻquvchi asardagi voqealarni tahlil va tadqiq qilar ekan, bevosita shu qahramonlar orqali oʻzini ham tahlil qiladi.



Mumtoz asarlarda fanlararo integratsiya masalasiga qaytadigan bo‘lsak, buni “Sab’ai sayyor” misolida ko‘rib chiqamiz.

Darslikda “**SAB’AI SAYYOR**” dostonidan parcha keltirilgan.

Aziz o‘quvchi! Endi e’tiboringizga “Xamsa”ning to‘rtinchi dostoni bo‘lmish “Sab’ai sayyor”dan olingan parchani havola qilamiz. Agar “Hayrat ul-abror”da yaxlit bir voqea hikoya qilinmay, u fikr-mulohaza, mushohada va tahlillardan iborat maqolatlardan, kichik hajmli hikoyatlardan tuzilgan bo‘lsa, bu doston keng qamrovli voqealarni o‘z ichiga olgan murakkab syujetli yirik epik asardir. Bunday asarlarda tasvirlar o‘zgarishi, voqealar almashinuvi o‘ziga xos tarzda bo‘ladi. Ya’ni voqealar bir makondan boshqasiga o‘tganda, lavhalarning biri ikkinchisiga ko‘chganda zamonaviy epik asarlarda bo‘lganidek boblar, bo‘limlar yoki sarlavhalar bilan ajratilmaydi. Shuning uchun mutolaa davomida Sizdan diqqat va sinchkovlik talab qilinadi. Garchi dostonning o‘zida bo‘lmasa-da, Sizga tushunishni yengillatish uchun voqealar almashinuviga qarab, biz ushbu parchani shartli ravishda olti qismga ajratib taqdim etdik. Avvalgi uch qismda har bir baytning satrma-satr ma’nosini bermoqdamiz. Bundan maqsad: sizda oldingi mashg‘ulotlar orqali shakllangan baytlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish, epik asarlarni tushunish bo‘yicha malaka hosil qilish. Siz avval baytni diqqat bilan o‘qing, keyin uni satrlar ostida bugungi tilda berilgan mazmuni bilan misrama-misra solishtiring. E’tibor bering: tushunilishi qiyin so‘zlar ma’nosi chiziq (tire) yoki (ya’ni) so‘zidan keyin keltirildi. Agar bunday so‘zlar bir necha marta takrorlansa, ma’nosi izohlanmay o‘z holicha qoldirildi. Qavs ichida esa misralarda bevosita bo‘lmasa-da, bayt mazmunidan kelib chiqib qo‘yib olinishi kerak bo‘lgan so‘zlar keltirildi. Agar shu uch qism orqali bayt mazmunini chiqarishni puxta o‘zlashtirib olsangiz, keltirilgan parchaning qolgan qismini o‘zingiz mustaqil tushunib, tahlil qila bilasiz<sup>16</sup>.

---

<sup>16</sup>Qosimov Begali, Qodirov Valijon. Adabiyot 7-sinf . –T.: Sharq, 2013. –B.78.

I. Suv va quruqlikda zulmni o‘ziga kasb qilib olgan zolim qaroqchi va uning makoni ta’rifi.

*“Bor ekandur Adanda javr fane, Javr qilmoq fanida safshikane.*

*Adanda jabrni fan — kasb (qilgan kishi) bor edi,*

*(U) jabr qilish fanida safshikan, ya’ni qahramon edi.*

*Bori manzil o‘lub savohil anga,*

*Sohili bahr o‘lub manozip anga.*

*Barcha manzillar unga sohil bo‘lib,*

*Dengiz sohillari uning manzillari edi.*

*Ham tanumand-u ham shujo-u daler,*

*Ul sifatkim jazira ichraki sher.*

*(U) ham kuchli, ham botir-u qo‘rqmas (bo‘lib),*

*Bu sifatlari (bilan) jangalzor ichra sher(ga tenglashardi).*

*Axzi moli harom komi o‘lub,*

*Bo‘yla kom istabon haromi o‘lub.*

*Maqsadi harom, ya’ni o‘zgalar molini talash bo‘lib,*

*Bunday istagidan (u) haromi(ga aylangandi).*

*Shavkatidin ne yor anga, ne rafiq ,*

*Yolg'uzun aylar erdi qat'i tariq.*

*Shavkatidan unda na o'rtoq, na do'st bo'lib,*

*Yolg'iz o'zi yo'lto'sarlik qilar edi.*

*Karvoni agar o'n-u gar yuz,*

*Borchasig'a harip edi yolg'uz.*

*(Yo'lda) karvon xoh o'n, xoh yuz (bo'lsa-da),*

*Barchasiga yolg'iz o'zi bas kela olardi.*

*Yo'q savohil ichinda ranzan ul,*

*Bahr aro ham anga kelib fan ul.*

*U sohilda, ya'ni quruqlikdagina qaroqchi emasdi,*

*Dengiz ichida ham bu (qaroqchilik) unga fan edi.*

*Bir necha zavraq asrabon tayyor,*

*Yangi oy zavraqi kibi sayyor.*

*(U doim) bir necha qayiqni tutardi tayyor,*

*(Ular) yangi (chiqqan) oy kabi edilar sayyor.*

*Qaysi zavraqkim, ul yasab oni,*

*Asrabon o'zga yerda pinhoni.*

*U qaysiki kema(lar)ni yasagan bo'lsa,*

*(Ularni) o'zga, ya'ni boshqa yerda pinhon asrardi.*

*Necha ranzan anga mulozim etib,*

*Hifzini borchasig'a lozim etib.*

*Qancha yo'lto'sarni unga, ya'ni kemalarga etib mulozim,*

*Barchasiga (kemalarni) qo'riqlashni ayladi lozim.*

1. **Adan** — Arabistondagi kichik mamlakat nomi.

2. **Javr** — jabr, azob.

3. **Fan** — hunar.

4. **Safshikan** — saflarni buzuvchi qahramon.

5. **Savohil** — sohillar, qirg'oqlar.
6. **Sohili bahr** — dengiz sohili.
7. **Manozil** — manzillar, maskan.
8. **Tanumand** — kuchli.
9. **Shujo** — botir.
10. **Daler** — qo'rqmas.
11. **Jazira** — orol.
12. **Axz** — olmoq, egallamoq.
13. **Rafiq** — do'st, o'rtoq.
14. **Qal'i tarh** — yo'l to'sish, yo'lto'sarlik.
15. **Harif** — raqib, bas kelguvchi, dushman.
16. **Rahzan** — yo'lto'sar, qaroqchi.
17. **Zavraq** — qayiq.
18. **Hifz** — saqlash, qo'riqlash.
19. **Diydabon** — kuzatuvchi, poyloqchi.
20. **Besha** — o'rmon, to'qay.
21. **Bahri mavjvar** — mavjlangan dengiz.
22. **Fihol** — darhol.
23. **Sabuksayre** — tezyurar.
24. **Tayr** — qush.
25. **Yonib** — qaytib, ketib.

## 26. **Bebok** — qo‘rqmay<sup>17</sup>.

O‘quvchi avval har bir baytni o‘qiydi, keyin satrlar ostidagi bugungi tilda berilgan ko‘rinishi bilan solishtiradi. Asarda tushunilishi qiyin so‘zlar chiziqcha “-“ yoki “ya’ni” so‘zidan keyin keltirilgan. Asarni o‘qish jarayonida kelib chiqqan ba’zi bir muammolarni bartaraf etish va o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun turli xil innovatsion texnologiyalarni kiritish lozim. Ular quyidagilar:

### **“Izohini toping” metodi**

Bu metodda o‘quvchilar 6 yoki 7 kishidan iborat guruhlarga ajraladilar. O‘qituvchi har bir guruh uchun alohida plakat tarqatadi. O‘quvchilar plakatda yozilgan tushunchalarning izohlarini yozishlari kerak bo‘ladi. Ularga ma’lum vaqt ajratiladi, o‘quvchilar izohlarni yozib tugatgach, har bir guruhdan bittadan o‘quvchi ketma-ketlikda o‘qiy boshlaydi. O‘qituvchi ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshiradi. Bu metod o‘quvchining har bir bayt tabdilini o‘qib, “Mazmuni shunday ekan-da”, - deb o‘tib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. O‘quvchi bu metod orqali fikrlarning o‘ziga xosligini tushunib yetadi. Masalan:

Adan		munfail	
Daler		sud	
Tanumandu		Sog‘ar	
Tanumandu		Ibriq	

---

<sup>17</sup>Qosimov Begali, Qodirov Valijon. Adabiyot 7-sinf. –T.: Sharq, 2013. – B.78.

## **“BILIM-RING” metodi**

Bu metodda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan individual tarzda ishlaydi. Bunda o‘quvchilarga “Mehr va Suhayl” haqida 3 ta yolg‘on va 1 ta haqiqat bo‘lgan fikrlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar qaysi fikr to‘g‘ri va qaysi biri noto‘g‘ri ekanligini topishlari kerak bo‘ladi. Savollarga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi bitta rag‘bat kartochkasiga ega bo‘ladi. Ajratilgan ma’lum vaqt ichida o‘zlariga tegishli bo‘lgan kartochkalarga ketma-ketlikda javob beradilar, belgilangan vaqt tugagandan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarning xato va kamchiliklarini tuzatadi va rag‘bat kartochkasiga eng ko‘p ega bo‘lgan o‘quvchi «Bilim-Ring»da g‘olib deb topiladi, o‘qituvchi muammoli vaziyatlarda umumlashgan xulosa yasaydi. Masalan:


1-kartochka.

1. Suhayl Adan viloyatida shahzoda edi
2. Mehr dengizdagi qattiq bo‘ron tufayli Jobirning asirasiga aylanadi
3. Shoir Mehrning tasvirini 9 baytda mohirona tasvirlaydi
4. Mehr so‘zining ma‘nosi “porloq yulduz”dir

## **“KAMALAK”**

Bu metodda o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadilar, guruhlarga o‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan rangli biletlar tarqatiladi. Rangli biletlar qaysi rangda bo‘lsa, o‘quvchilar asar bosh qahramoni Shoh Bahrom uchun qurilgan rangli saroylarni va ular bilan hikoyatlarni navbatma-navbat sanashlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning bergan javoblarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini

tekshiradi. Bu metod o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradi. Asarda keltirilgan fikrlarni yodda saqlash va o‘z mustaqil fikrlariga tayangan holda muayyan xulosaga kelishga yordam beradi.



### **“Arra” metodi**

Pedagogik amaliyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o‘quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o‘quvchilar bajarilishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o‘quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo‘yicha “mutaxassis”ga aylanadi. So‘ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) “mutaxassis” bo‘lishi shart, mazkur “mutaxassis”lar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi “arra”



tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

Dars oxirida har bir kichik guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o‘tkaziladi.

O‘quvchilar guruhlariga ajratiladi va guruhlar o‘zlariga nom tanlaydilar

1	Guruh	“Tilshunoslar”
2	Guruh	“Adabiyotshunoslar”
3	Guruh	“Geograflar”
4	Guruh	“Botaniklar”
5	Guruh	“Musiqachilar”
6	Guruh	“Musavvirlar”
7	Guruh	“Matematiklar”
8	Guruh	“Tarixchilar”

Guruhlar o‘zlariga mos nom tanlaganlaridan so‘ng ularga beriladigan vazifalar ham nomlariga mos bo‘ladi.

TOPSHIRIQ	BAJARILGAN VAZIFA	NATIJA
1-guruhga keltirilgan she'riy parchadan fe'l so'z turkumidagi so'zlarni topish		
2-guruhga esa parchadan qofiyadosh so'zlarni topish		
3-guruhga geografik joy nomlarni topish		
4-guruhga berilgan she'riy parchada keltirilgan o'simliklar nomlarini topish		
5-guruhga berilgan she'riy parchaga mos musiqa tanlash		

6-guruhga esa she'riy parchaga mos surat chizish		
7-guruhga esa keltirilgan she'riy parchadagi raqamlarni aniqlash		
8-guruh esa she'riy parchadan tarixiy shaxslarni aniqlash		


Mazkur “mutaxassis”lar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi “arra” tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

Dars oxirida har bir kichik guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o‘tkaziladi.

### **«Suratlar so‘zlaganda» metodi**

Bunda o‘qituvchi “Sab’al sayyor” dostonidagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni alohida kartochkalarga yozib chiqadi, keyingi kartochkalarda esa shu so‘zlar ma’nosini anglatuvchi suratlar beriladi, o‘quvchi mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa so‘zlarga mos suratlarini topishda qiynalmaydi

Bu metod o‘quvchining mavzuga nisbatan qiziqishini oshiradi va faolligini ta’minlab beradi, o‘tilgan mavzu uning xotirasida yaxshi saqlanib qoladi;



.....



.....



.....



.....



.....



.....

Berilgan kartochkalardagi soʻzlarga mos suratlar keltiriladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytib oʻtish joizki, bunday texnologiyalar hozirgi vaqtda taʼlim bosqichlarida adabiyot oʻqitishning samaradorligini oshiradi. Ularni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlansa, koʻzlangan maqsadga erishiladi. Anʼanaviy dars shaklining ayrim afzalliklarini saqlab qolgan holda uni taʼlim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman texnologiya va metodlar bilan boyitish taʼlim oluvchilarning oʻzlashtirish darajasining oʻsishiga olib keladi. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun oʻzining shaxsiy yoʻlini izlagandagina oʻquvchi haqiqatdan ham fikrlaydi.

### III.BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING AMALIYOTGA TADBIQI

#### 3.1. Ochiq dars ishlanmasi

*Sana: 17.03.2018*

*Sinf: 7-“B”*

*Fan: Adabiyot*

**Mavzu: “Sab’ai sayyor” dostonidan olingan “Mehr va Suhayl” hikoyatini o‘rganish**

#### *Darsning texnologik xaritasi*

<b>Maqsad va vazifalar</b>	<p><b>Ta’limiy maqsad:</b> o‘quvchilarga hikoyatning mazmun va g‘oyasi haqida ma’lumot berish, undagi qahramonlarning xarakterini ochib berish;</p> <p><b>Tarbiyaviy maqsad:</b> o‘quvchilarni mard, jasur, adolatli bo‘lishga undash, ularni vatanga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash;</p> <p><b>Rivojlantiruvchi maqsad:</b> o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish.</p>
<b>O‘quv jarayonini</b>	<b>Metod (uslub):</b> og‘zaki

<p><b>amalga oshirish texnologiyasi</b></p>	<p><b>Shakl (forma):</b> savol-javob</p> <p><b>Usul:</b> “Kim zukko va topqir?”, “Venn diagrammasi”, bahs-munozara, test</p> <p><b>Vosita (darsda foydalaniladigan jihozlar):</b> darslik, A.Navoiy surati, asarlari, Navoiy hayotiga doir taqdimot</p> <p><b>Nazorat turi:</b></p> <hr/> <p><b>Baholash:</b> Rag‘batlantirish, 5 ballik reyting tizimi asosida.</p>
<p><b>Kutiladigan natijalar</b></p>	<p>O‘qituvchi mavzuning dars jarayonida ta’limning ilg‘or usullari vositasida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. O‘quvchi faolligini oshiradi. O‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otadi.</p>
<p><b>Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)</b></p>	<p><b>O‘qituvchi:</b> Pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o‘z ustida ishlash. Pedagogik mahoratini oshirish.</p> <p><b>O‘quvchi:</b> Mavzu yuzasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashni o‘rganadi. O‘z fikrini bayon eta oladi. Yangi mavzuga oid qo‘shimcha materiallar topishga harakat qiladi.</p>
<p><b>Uyga vazifa</b></p>	<p>Mavzuni o‘qib o‘rganish.</p>

**Mashg‘ulot bosqichlari:**

	<b>Dars bosqichlari</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Vaqt</b>
--	-------------------------	----------------	-------------

1	<b>Tashkiliy qism</b>	<i>Salomlashish. O'quvchilarni darsga tayyorgarligi, sinfda psixologik iqlim yaratish</i>	7 <i>daqiqa</i>
2	<b>O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash</b>	<i>O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob, o'tilgan mavzuni mustahkamlash hamda uyga vazifa bajarilganligini tekshirish.</i>	8 <i>daqiqa</i>
3	<b>Yangi mavzu bayoni</b>	<i>Yangi mavzuning mazmuni tushuntiriladi. O'quvchilarda yangi mavzu haqida bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.</i>	20 <i>daqiqa</i>
4	<b>Yangi mavzuni mustahkamlash</b>	<i>O'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalari savol-javob orqali aniqlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.</i>	7 <i>daqiqa</i>
5	<b>Darsni yakunkash, o'quvchilarni baholash va uyga vazifa barish</b>	<i>Baholarni e'lon qilish, uyga vazifani tushuntirish. O'quvchilar bilan xayrlashish.</i>	3 <i>daqiqa</i>

### ***Darsning borishi:***

#### ***I. Tashkiliy qism:***

- a) *salomlashish, suhbat;*      b) *psixologik iqlim yaratish*



Aziz o'quvchilar, bugungi kunda xalqimiz ma'naviyatini, ruhiyatini yuksaltirish, har jihatdan komil insonni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada o'tmish adabiyotimizning o'rni, ulug' bobokalonlarimizning ma'naviyat sarchashmalaridan bahramand bo'lishning ahamiyati qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Navoiy bobomizning shaxsiyati, u kishi qoldirgan adabiy merosning xalqimiz hayotidagi yanada salmoqli ekanligi shubhasizdir.

Har yili 9-fevral kuni butun O'zbekistonda buyuk bobokalonimiz, hazrat Alisher Navoiyning tug'ilgan kuni nishonlanadi. Biz shu yil Navoiy tavalludining 577 yilligini nishonlaymiz. Barcha maktab va oliy o'quv yurtlarida, kollej hamda litseylarda va boshqa muassasalarda bu sana bayram qilinadi. Bu she'riyat bayrami, adabiyot bayramidir.

Navoiyning buyukligi nimada? Shoir asarlarining sehri nafosati nima bilan bog'liq? Navoiyga xalqimiz ko'rsatayotgan mehri, ehtiromining boisi ne? Bu savollarga har kimning o'z javobi bor. Navoiyni har kim o'zicha tushunadi, idrok kuchi yetguncha anglaydi. Buning asosiy sababi shundaki, Alisher Navoiy bizning Vatanimiz tarixidagi eng ulug' siymolardan biridir. Navoiyning har bir so'zi hikmatdir. Bu hikmatlar bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Navoiyning "Odami ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami" degan so'zlari bugun o'z ifodasini topmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb nomlandi. Xalq bilan ochiq muloqot qilish, uning dardini tinglash, har bir ishda birinchi navbatda inson manfaatini ustun qo'yish birinchi galdagi vazifa qilib belgilandi. Bu ham Navoiy so'zlarinig isbotidir. Bu zot millatimizni eng madaniyatli va ma'rifatli xalqlar qatoriga olib chiqqan, jahon adabiyotining ulkan namoyandalari qatorida turadigan zotdir. Bugungi darsimizda mana shu ulug' zotning hayoti va ijodi bilan tanishamiz. Kelinglar, Navoiy bobomiz haqida she'rlar aytib, u kishining ruhlarini shod etaylik. (O'quvchilar ijrosida Navoiy haqida she'rlar aytiladi)

**1-o'quvchi:** Jahonki muqaddas neni ko'ribdi,

Bariga onasan ey, qodir hayot!

Asrlar qa'ridan boqib turibdi,

Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

**2-o'quvchi:**

Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan,

Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.

Uning nomi bilan birga bitilgan,

Dunyo daftariga o'zbek degan nom!

**3-o'quvchi:**

**NAVOIY DUNYOSI**

Bul kecha kezdim g'azal dunyosida, Yor jamoli tomchida oftob edi,

Hazratim she'rin go'zal dunyosida. Sayr qildim ming Zuhal dunyosida.

Sarv qadlarni tomosha ayladim, Chehralar gul-gul yonur, qizlar  
xumor,

“Chor devon” mulkin asal dunyosida. Yayradim ishq-u amal dunyosida.

Qalbin ochdi menga Laylo-yu Shirin,

Sho'x navo, she'ri masal dunyosida.

Buncha san'at, buncha hayrat, buncha zavq,

Jam Navoiyning mash'al dunyosida.

### NAVOIIDAN SO‘Z OCHSAM AGAR.

Toki tinmas hayot qo‘shig‘i,

Ochiladi hayot eshigi.

Tebranadi xalqim beshigi,

Navoivdan so‘z ochsam agar.

“Qora ko‘zim”- ilohiy tilsim,

“Munojot”- dil azaliy mas‘um.

“Gulzorim” mehrga ta‘zim,

Navoivdan so‘z ochsam agar.

Ne-ne zotlar kelar boshi xam,

Xayolini kishanlagan g‘am.

Tarqab ketar tumanlari ham,

Navoivdan so‘z ochsam agar.

Qafaslarni sindirar bulbul,

Tushovlarni uzadi dul-dul.

Quyosh bilan qovushar ko‘ngil,

Navoivdan so‘z ochsam agar.

Razolatni qilganda barbod,

Majnun cho‘lni ayladi obod.

Tog‘-toshlardan keladi Farhod,

Navoivdan so‘z ochsam agar.

Yangi avlod qalamni yo‘nar,

Ming bir yillik alamlar so‘nar.

Biyron bulbul qo‘limga qo‘nar,

Navoivdan so‘z ochsam agar.

*II.O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:*

Darsni boshlashdan oldin sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi. O'tilgan mavzu test va "Kim zukko va topqir?" o'yini asosida takrorlanadi. Har bir guruhga alohida testlar tarqatiladi. Ularning javoblari "5", "4", "3" ball bilan baholanib boriladi.

Test savollari:

1. *Alisher Navoiy qaysi asarida o'zining yoshlik chog'larida mashhur o'zbek va fors shoirlari nazmida 50 ming bayt she'r bilganini yozadi?*

- A. "Nasoyim ul-muhabbat"da                      B. "Lison ut-tayr"da  
C. "Muhokamat ul-lug'atayn"da                D. "Mahbub ul-qulub"da

2. *Alisher Navoiy qaysi ustozidan aruz bo'yicha ta'lim oladi?*

- A. Sayyid Hasan Ardasherdan                B. Kamol Turbatiydan  
C. Darvesh Mansurdan                         D. Amir Shohiydan

3. *Alisher Navoiy o'z asarlarida qaysi shaharni firdavsmonand deb ta'riflaydi?*

- A. Samarqandni                      B. Hirotni                      C. Balxni                      D. Iroqni

4. *Alisher Navoiyning umrining so'nggida yaratgan asari qaysi?*

- A. "Mezon ul-avzon"                      B. "Muhokamat ul-lug'atayn"  
C. "Mahbub ul-qulub"                      D. "Xazoyin ul-maoniy"

5. *"Amiri kabir", "Amir ul-muqarrab" unvonlari bilan ulug'langan shoirimiz kim?*

- A. Alisher Navoiy                      B. Bobur                      C. Lutfiy                      D. Ogahiy

6. *Alisher Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan devoni bugungi kunda shartli ravishda qanday ataladi?*

- A. “Badoe’ ul-bidoya”                      B. “Navodir un-nihoya”  
C. “Devoni Foniyy”                          D. “Ilk devon”

7. *Alisher Navoiy nechanchi yillar Astrobodga hokimlik qilgan?*

- A. 1481-1483-yillar      B. 1485-1486-yillar      C. 1487-1488-yillar  
D. 1490-1492-yillar

8. *Navoiyning qaysi asari shayxlar, so‘fiylar hayoti haqida ma’lumot beruvchi asar hisoblanadi?*

- A. “Majolis un-nafois”                      B. “Sabhat-u abhur”  
C. “Nasoyim ul-muhabbat”                  D. “Makorim ul-axloq”

9. *Jazira so‘zining ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?*

- A. hunar    B. maskan                          C. sohillar  
D. orol

10. *“Mehr va Suhayl” hikoyatida odamlarga jabr qilishni kasb qilib olgan obraz kim?*

- A. Suhayl    B. No‘mon                          C. Navdarshoh                      D. Jobir

O‘quvchilar testlarni bajargunlaricha qolgan o‘quvchilar bilan “Kim zukko va topqir?” usuli bajariladi. Bunda ko‘rgazmada turli xil nuqtalarda turli xil yillar yoziladi. O‘quvchilar ushbu yillarda Alisher Navoiy yozgan asarlar nomini aniqlashadi. Bu ham guruhlarda bajariladi.

### ***III. Yangi mavzu bayoni: Darsning rejasi:***

1. Asar qahramonlariga tavsif
2. Venn diagrammasi
3. Asarda qo‘llangan she‘riy san’atlar

**O‘qituvchi:** Haft-paykarni tutib egildi,

Yetti go‘zal unga ta‘zimga keldi.

Qoshida tikkayib turdi shoh Bahrom,

Sadoqat dutorin chaldi Dilorom.

### **JOBIR TIMSOLIGA TAVSIF**

Asarda Jobir shunday tasvirlangan:

Mazmuni:

Bor ekandur Adanda javr fane,

*Adanda jabrni fan-kasb  
qilgan kishi bor edi.*

Javr qilmoq fanida safshikane.  
*edi.*

*U jabr qilish fanida qahramon*

Ham tanumand-u ham shujo-u daler,

*U ham kuchli ham botir-u  
qo‘rqmas bo‘lib,*

Ul sifatkim jazira ichraki sher

*Bu sifatlari bilan jangalzor  
ichra sherga o‘xshardi*

Axzi moli harom komi o‘lub,

*Maqsadi harom, ya‘ni  
o‘zgalar molini talash bo‘lib,*

Bo‘yla kom istabon haromi o‘lub.

*Bunday istagiga u  
haromiga aylangandi.*

Shavkatidan ne yor anga, ne rafiq‘

*Shavkatidan unda na  
o‘rtoq, na do‘st bo‘lib,*

Yolg‘uzun aylar erdi qat‘i tariq  
*edi.*

*Yolg‘iz o‘zi yo‘lto‘sarlik qilar*

Karvoni agar o‘n-u gar yuz,

*Yo‘lda karvon xoh o‘n,  
xoh yuz bo‘lsa-da,*

Borchasig‘a harif edi yolg‘uz.  
*kela olardi.*

*Barchasiga yolg‘iz o‘zi bas*

Yo‘q savohil ichinda rahzan ul,

*U sohilda, ya‘ni  
quruqlikdagina qaroqchi emasdi,*

Bahr aro ham anga kelib fan ul.	<i>Dengiz ichida ham bu qaroqchilik unga fan edi.</i>
Talabon mol-u, elni aylab halok,	<i>Mollarni talab, kemadagi elni halok qilib,</i>
Yonibon komi dil bila bebok.	<i>Dildagi maqsadiga yetib xotirjam qaytardi.</i>
Bahr aro ofati nechukki nahang,	<i>U dengiz ichida go‘yo nahang kabi ofat bo‘lsa,</i>
Besha ichra nechukki sher-u palang.	<i>To‘qay, ya‘ni quruqlikda sher-u yo‘lbarsday edi.</i>
Suv yuzinda sabo kibi obir, <i>kezuvchi edi,</i>	<i>Suv yuzida shabada kabi</i>
Otini xalq aytibon Jobir.	<i>Xalq uning otini Jobir derdi.</i>
Dasht-u daryoda lek ahli ubur	<i>Lekin dasht-u daryodagi sayyohlar orasida</i>
“Jobiru rohzan” qilib mashhur.	<i>U “qaroqchi Jobir” nomi bilan mashhur edi.</i>

## MEHR TIMSOLIGA TAVSIF

Asarda Mehr shunday tasvirlangan:	Mazmuni:
... Bor emish go‘yiyo anga bir qiz, <i>go‘yo</i>	<i>...Uning bir qizi bor emishki,</i>
Odami o‘yla ko‘rmagan hargiz.	<i>Odami bunday go‘zalni hargiz ko‘rmagan.</i>
Qaddikim naxli sarfarozi kelib,	<i>Qaddi tik o‘sgan nihol singari,</i>
Husn bog‘ida sarvinozi kelib.	<i>Husn bog‘ida u sarvinozi edi.</i>
Zulfidin sunbul aylabon yuz pech,	<i>Zulfuni ko‘rib sunbul rashkdan yuz buralib ketadi,</i>

Og'zidan g'uncha aytmay so'z hech.	<i>Og'zini ko'rgach g'uncha uyatdan hech so'z aytolmay qoladi</i>
Orazi mash'ali jahonafro'z, <i>mash'alabo'lsa,</i>	<i>Yuzi jahonni kuydirguvchi</i>
Partavi shu'lasi kelib jonso'z.	<i>Undan taralayotgan nur shulasi jonga o't qo'yuvchi edi.</i>
Sochi aylab kamand bo'lmoq fan,	<i>Sochi kamand – sirtmoq bo'lishni fan qilgan bo'lib,</i>
Mehr bo'ynig'a tortar erdi rasan.	<i>Quyoshning bo'yniga arqondek o'ralib tortar edi.</i>
Yuzig'a mehr banda-vu oti Mehr,	<i>Yuziga mehr – quyosh banda bo'lganning oti Mehr,</i>
O'yrulub mehridek boshig'a sipehr. <i>aylanardi.</i>	<i>Falak boshiga uzra quyoshdek</i>
Bahrg'a noz ila chu ko'z solibon, <i>tashlasa,</i>	<i>Agar u noz bilan dengizga ko'z</i>
	<i>Dema ko'lak, bahr qo'zg'olibon . To'lqinlargina emas, balki dengiz qo'zg'alardi.</i>
Bu sifat mehri olamfuruze,	<i>Bu sifat bilan u olamni yoritadigan mehr – quyoshdir,</i>
Mehr yo'q, shu'lai jahonso'ze.	<i>Yo'q, mehr emas, jahonni yondirguvchi shu'ladir.</i>
O'yla bahri falak misol ichra,	<i>Go'yo dengiz falak misol-u, ya'ni dengiz osmonga o'xshar,</i>
Kavkabi yer tutab hilol ichra. <i>ichidagi yulduzdek edi.</i>	<i>U nihol – yarimoy shakldagi kema</i>



## SUHAYL TIMSOLIGA TAVSIF

Asarda Suhayl shunday tasvirlangan:	Mazmuni:
Anga bir o‘yla nozanin farzand,	<i>Uning shunday bir nozanin farzandi bo‘lib</i>
Kim, bashar ichra yo‘q anga monand.	<i>Insonlar orasida unga monand – o‘xshashi yo‘q edi.</i>
Yuzidin bargi gul xijii erdi,	<i>Yuzining go‘zalligidan gul bargi tortardi,</i>
Qaddidin sarv munfail erdi.	<i>Qaddining kelish ganligidan sarv daraxti xijolat edi.</i>
Borcha fazilat-u hunarda yo‘q misli,	<i>U barcha fazilat-u hunarda o‘xshashi yo‘q,</i>
Ko‘zguga boqsa o‘zi-o‘q misli.	<i>Ko‘zguga boqsa husnda o‘ziday kishi yo‘q.</i>
Hunar avji sori kelib anga mayl,	<i>Hunar egallashda yuksaklikka mayl qilardi,</i>
Yuzi andoqki mehr, oti Suhayl. <i>Suhayl edi.</i>	<i>Yuzi mehrdek yorqin, oti</i>

**O‘qituvchi:** Asar qahramonlarini chiroyli tasvirladingiz. Keling, endi bevosita asar voqealari xususida suhbatlashaylikda ularning ichki dunyosiga nazar solaylik.

**Savol:** Asarda Jobirning “moli harom” maqsadi bilan yashashi aytiladi. Harom mol, harom rizq tushunchasini Siz qanday izohlaysiz? Navoiy harom bilan tirikchilik qiluvchilarni qanday atagan?

**Savol:** Navdarshohning shaxsiy fazilatlari, mamlakatining nomlanishi va g‘azal tabiati tasviri o‘lka va uning xalq to‘g‘risida tasavvur beradimi?

**Savol:** Suhayl sair tushishi tasvirida yigitning jasorati, mardligi hamda qaroqchining hiylakorligi qanday ifodalanganini ko‘rsating.

**Savol:** Jobirning: “Men bu zavraqni suvg‘a to surdim,

Ming seningdekni suvda o‘turdim.

Birida sencha ko‘rmadim jur’at,

Jur’ating bo‘ldi maxlasingga jihat” tarzida iqroriga qarab, qaroqchining ichki olami haqida mulohaza yuriting.

**Savol:** “Bo‘lsa ul dushman ilgida mahbus,

Manga nomus erur, sanga nomus”, deb yozganda Navdarshoh nimani ko‘zda tutadi deb o‘ylaysiz?

**Savol:** Tutqunlarning ozod bo‘lishida kimning xizmati ko‘proq deb o‘ylaysiz? Mehrningmi yoki Suhaylning?

**Savol:** “Sen agar zohir etding itlikni,

Men senga ko‘rguzay yigitlikni” so‘zlari kimga tegishli? “Itlik” va “yigitlik” xislatlarini sharhlang.

**Savol:** Nima deb o‘ylaysiz, Jobir hammadan ko‘proq kimga jabr qildi?

**O‘qituvchi:** Endi kelinglar, hozir aytgan fikrlarimiz asosida “Venn diagrammasi”ni to‘ldirib, mavzudan xulosa chiqaraylik.

“Venn diagrammasi”da Jobir va Suhayl timsoliga xos bo‘lgan xislatlar ikkita doira pallasiga yoziladi. Doiralar kesishgan joyda esa ular uchun umumiy bo‘lgan xislatlar yoziladi va mavzu xulosalanadi:

Demak, inson kuchli, aqlli, tadbirkor bo‘lgani bilan yaxshi bo‘lib qolmaydi. Hamma gap bu xislatlarni qanday maqsadda ishlatishdadir. Yovuzlikka xizmat qiluvchi bunday xislatlarni hech ham yaxshi deb bo‘lmaydi. Yomonlik esa hech qachon jazosiz qolmaydi. Harom yo‘l bilan topilgan boylik hech qachon buyurmaydi. Hiyla, aldov bilan qozonilgan g‘alaba havo to‘ldirilgan pufakka o‘xshaydi. Bir kun yoriladi-da, undan nom-nishon qolmaydi. Jobirning ham qismati shunday yakun topdi. U bosqinchilik, qaroqchilik qildi, birovlarining molini taladi, odamlarga zulm qilib, ularga ozor berdi. Oxir oqibatda esa Suhaylning qo‘li bilan jazolandi. Bugungi kunda tinch mamlakatning osoyishtaligini buzishga harakat qilayotgan, pul uchun Vataniga xiyonat qilayotgan, pul uchun birodarini yeti yod begonaga qul qilib sotayotgan kimsalarni mana shu Jobirga qiyoslash mumkin. Bular alar oqibat, albatta, Jobirning ahvoliga tushishadi va tushishmoqda.

Biz bunga televideniya orqali namoyish etilayotgan ko'rsatuvlarda guvoh bo'lyapmiz. Ular ma'lum vaqt o'z niyatlariga yetgandek bo'lishadi, ammo baribir bir kunmas bir o'z jazolarini olishadi.

Xalqimiz azal-azaldan mard, to'g'riso'z, adolatli insonlarni ulug'lab kelgan. Suhayl ham shu xislatlari sababli o'z maqsadiga erishdi. Suhayl o'z xalqi farovonligi va yurt tinchligi yo'lida xizmat qilayotgan mard o'glonlarni ko'rishimiz mumkin. Demak, biz to'g'ri yo'lni tutsak, atrofdagi kishilarga mehr-oqibatli bo'lsak, har qanday vaziyatda adolat bilan ish tutsak, albatta, hayotda o'z o'rnimizni topamiz.

**O'qituvchi:** Endi esa sizlarga she'riy san'atlardan tashbih, tanosib va irsoli masal san'atlari haqida ma'lumot beraman.

**Tashbih-** adabiyotda keng qo'llanadigan she'riy san'atlardan biridir. Uni o'zbekcha qilib o'xshatish desak ham bo'ladi. Bunda narsa, belgi, harakat boshqa bir narsa, belgi, harakatga qiyoslanadi. Bu o'sha aytilayotgan tushunchani anglash va his qilishni osonlashtiradi. Demak, tashbih ikki narsani bir-biriga o'xshatishdir. Masalan: "Yuzing go'zallikda gul kabidir" deyilganda yuz gulga qiyoslanayapti. Tashbihning yuzaga kelishida to'rt unsur ishtirok etishi mumkin.

**O'xshamish** – tasvirda fikr qaratilgan narsa yoki tushuncha ( yuz )

**O'xshatilmish** - tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha ( gul)

**Asos** - nimaga ko'ra o'xshatishning yuzaga chiqqanligi ( go'zalligi)

**Vosita** – kabi so'zi

**Tanosib** – baytda ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash orqali hosil qilinadi. Masalan:

Anda bir shoh hokim-u voliy,

Mulki ma'mur-u himmati oliy.

Ushbu misralardagi shoh, hokim, voliy, ma'mur so'zlari hokimiyat tushunchasiga tegishlidir.

**Irsoli masal** – "maqol tanlash" ma'nosini bildirib, baytda fikr isboti uchun xalq maqollaridan foydalanish san'atidir.

**IV. Mustahkamlash:**

Quyidagi misralarda qoʻllangan sheʼriy sanʼatlarni toping.

Chun bular dogʻi keldi motam ila,

Bahri anduh-u lujjai gʻam ila.

( tanosib)

Ul Zuhalvash jazogʻa xos oʻlgʻay,

Mehr ham uqdadin xalos oʻlgʻay.

( tashbih)

Har kishikim birovga qozgʻay choh,

Tushgay ul choh aro oʻzi nogoh.

( irsoli masal)

*V.Darsni yakunlash, uyga vazifa:*

**4-oʻquvchi:** Bu navo Farhoddek togʻ qandi qancha

Bu navo gul, nihol oʻtqazdi qancha.

Bu navo Jayhundek tinim bilmaydi.

Qancha shahar, daryo va qasr osha

Bizga yetib keldi besh asr osha.

**5-oʻquvchi:** Koʻhak boʻylarida yangramoqda u,

Oʻzbek toʻylarida yangramoqda u.

Bu sizning kuyingiz ustoz Navoiy.

**6-oʻquvchi:** Navoiymi, hech qachon xor boʻlmaydi ham,

Baytlari umrboqiy soʻnmaydi ham.

Ashʻorlarin bulbul boʻlib kuylaymiz,

**Hamma:** Gʻazallar in dilga joylab yashaymiz.

**Uyga vazifa:** Hikoyatda qo‘llangan she’riy san’atlarni topish va izohlash.

### 3.2 Tadqiqot natijalarini tajriba-sinovdan o'tkazish uchun tayyorlangan materiallar

Tadqiqotda berilgan usullarni qo'llash va ochiq darsni o'tishdan oldin berilgan topshiriqlar:

**1-topshiriq.** Keltirilgan she'riy parchada jadvalda berilgan so'zlarning izohini toping

Bor ekandur Adanda javr fane,

Javr qilmoq fanida safshikane.

Ham tanumand-u ham shujo-u daler,

Ul sifatkim jazira ichraki sher

Adan		Sher	
Daler		Sud	
Tanumandu		fane	
Shujo		safshikane	

2-topshiriq Keltirilgan she'riy parchadagi izoh qaysi qahramonlarga tegishli ekanligini toping

1

Yuzidin bargi gul xijii erdi,  
*bargi tortardi,*

Qaddidin sarv munfail erdi.

*Yuzining go'zalligidan gul*

*Qaddining kelish ganligidan sarv daraxti xijolat edi.*

2

Bahr aro ofati nechukki nahang,  
*kabi ofat bo'lsa,*

Besha ichra nechukki sher-u palang.  
*u yo'lbarsday edi.*

*U dengiz ichida go'yo nahang*

*To'qay, ya'ni quruqlikda sher-*

3

Orazi mash'ali jahonafro'z,  
*mash'alabo'lsa,*

Partavi shu'lasi kelib jonso'z.

*Yuzi jahonni kuydirguvchi*

*Undan taralayotgan nur shulasi jonga o't qo'yuvchi edi.*

3-topshiriq Quyidagi misralarda qo'llangan she'riy san'atlarni toping.

1

Chun bular dog'i keldi motam ila,

Bahri anduh-u lujjai g'am ila.

2

Ul Zuhalvash jazogʻa xos oʻlgʻay,

Mehr ham uqdadin xalos oʻlgʻay.

4-topshiriq mavzu yuzasidan test savollariga javob bering

1 Jazira soʻzining maʼnosi qaysi qatorda toʻgʻri izohlangan?

A. hunar                      B. maskan                      C. sohillar

D. orol

2 “Mehr va Suhayl” hikoyatida odamlarga jabr qilishni kasb qilib olgan obraz kim?

A. Suhayl                      B. Noʻmon                      C. Navdarshoh                      D.

Jobir

3. Keltirilgan sheʼriy parchada qoʻllangan sheʼriy sanʼatni toping

Anda bir shoh hokim-u voliy,

Mulki maʼmur-u himmati oliy.

A.tanosub      B.Irsoli masal      C.Tashbeh      D. Talmeh

4. Keltirilgan sheʼriy parchadagi izoh qaysi qahramonga tegishli ?

Borchasigʻa harif edi yolgʻuz.

Yoʻq savohil ichinda rahzan ul,

A. Jobir      B. Suhayl      C. Noʻmon      D.Navdar



5.Rasan so‘zining ma‘nosini toping ?

A.Arqon    B.Kema    C.Dunyo    D.Gul

Biz tavsiya etgan usullar, o‘tilgan ochiq darslar, olib borilgan tushuntirish ishlaridan so‘ng o‘quvchilarning “Sab’ai sayyor” dostoniga oid bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini sinash maqsadida guruhdan quyidagi ko‘rinishda nazorat ishi olindi.

1-topshiriq “Mehr va Suhayl ” hikoyati haqida 3 ta yolg‘on va 1 ta haqiqat bo‘lgan fikrlar yozilgan kartochkalardan qaysi fikr to‘g‘ri ekanligini toping

Suhayl Adan viloyatida shahzoda edi
Mehr dengizdagi qattiq b o‘ron tufayli Jobirning asirasi aylanadi
Shoir Mehrning tasvirini 9 baytda mohirona tasvirleydi
Mehr so‘zining ma‘nosi “porloq yulduz”dir

2-topshiriq Keltirilgan she‘riy parchadan talmeh san‘atiga asos bo‘lgan tarixiy shaxs otlarni va geografik joy nomlarini toping

Bor ekandur Adanda javr fane,

Javr qilmoq fanida safshikane.

Bor emish go‘yiyo anga bir qiz,

Yuzig‘a mehr banda-vu oti Mehr,

3-topshiriq. 4-topshiriq mavzu yuzasidan test savollariga javob bering

1 Jazira so‘zining ma‘nosi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

A. hunar

B. maskan

C. sohillar

D. orol

2 “Mehr va Suhayl” hikoyatida odamlarga jabr qilishni kasb qilib olgan obraz kim?

A. Suhayl

B. No‘mon

C. Navdarshoh

D.

Jobir

3. Ketirilgan she‘riy parchada qo‘llangan she‘riy san’atni toping

Anda bir shoh hokim-u voliy,

Mulki ma‘mur-u himmati oliy.

A.tanosub

B.Irsoli masal

C.Tashbeh

D. Talmeh

4. Keltirilgan she‘riy parchadagi izoh qaysi qahramonga tegishli ?

Borchasig‘a harif edi yolg‘uz.

Yo‘q savohil ichinda rahzan ul,

A. Jobir    B. Suhayl    C. No‘mon    D.Navdar

5.Rasan so‘zining ma‘nosini toping ?

A.Arqon    B.Kema    C.Dunyo    D.Gul

4- topshiriq. She ‘riy parchada tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘ying

So‘z kelib avvalu, ..... so‘ngra,

Ne ....., kavn ila makon so‘ngra...

Alloh, alloh, ne so‘z durur bu so‘z

Mundin ortuq ..... bo‘lurmu so‘z

Jism bo‘stonig‘a ..... so‘z dur,

Ruh ashjorig‘a samar so‘z dur.

### **3.3        Tajriba – sinov ishlari bo‘yicha tahlil**

Avvalo, “Sab’ai Sayyor”dagi fanlar aro uyg‘unlikni o‘rgatish usullarini tavsiya etishdan oldin biz o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan “Sab’ai sayyor” dostonida fanlar aro uyg‘unlik asosida interfaol metodlardan foydalanib ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba-sinov ishlari Yakkasaroy tumani 135-maktabga qarashli 7-‘B’ sinfida 27 nafar o‘quvchi bilan amalga oshirildi.

Asoslov bosqichida tajriba-sinov guruhining 7-sinf o‘quvchilaridan 10 nafari bilan individual va jamoaviy tarzda suhbatlar, so‘ngra berilgan she’riy topshiriqlar test topshirig‘i, qahramonlarning sifatlarini topish, berilgan she’riy parchadan she’riy san’atlarni topish kabi mashq va topshiriqlar berildi.

Ushbu natijalar matematik yo‘l bilan tahlil qilindi. 1-topshiriqdagi jadvalda keltirilgan so‘zlar izohi topish bo‘yicha berilgan topshiriqda guruhdagi o‘quvchilarning 14 (52 %) so‘zlar izohini to‘g‘ri topganlar, ammo jadvalga to‘g‘ri joylashtirmaganlar. 5 (18 %) nafar o‘quvchi esa topshiriqni to‘g‘ri bajargan. 8 (30 %) nafar o‘quvchi esa taxminiy sonlar bilan topshiriq shartiga javob berganlar.

Keyingi 2-topshiriqda o‘quvchilar berilgan badiiy matndagi sifatlar qaysi qahramonga tegishli ekanligini topish so‘ralgan edi. Guruhdagi o‘quvchilarning 17 (63 %) nafari birinchi topshiriqni bajargandan so‘ng “Mehr va Suhayl” hikoyati haqidagi ma’lumotlarni esga olgan holda keyingi topshiriqdagi she’riy sifatlarining qaysi qahramonga tegishli ekanligini aniqlay oldilar, lekin ularga hech qanday izoh bera olmadilar. Guruhdagi o‘quvchilarning 6 (22 %) nafari esa badiiy matn tarkibida she’riy sifatlarini qaysi qahramonga tegishli ekanini aniqlab, ularga bir muncha izoh berishga harakat qilganlar. 4 (15 %) nafar o‘quvchi badiiy matn tarkibidagi sifatlarining qaysi qahramonga tegishligini aniqlashda ham, ularni izohlashda ham xatoliklarga yo‘l qo‘yganlar.

Uchinchi topshiriqda esa o‘quvchilardan “Berilgan she’riy parchadagi she’riy san’atni aniqlash vazifasi berilgandi. O‘quvchilarning aksariyat qismi, ya’ni 20

nafari (74 %) she'riy parchadagi she'riy san'atni nomlay olmagan bo'lsalar-da, she'rdan kelib chiqadigan mazmun mohiyat haqidagi fikr-mulohazalarini kimdir oz, kimdir to'liq holatda bildira olganlar. Bunga esa albatta, o'quvchilarning she'rning to'liq matni bilan oldindan tanish ekanliklari yordam berdi. Qolgan 5 (18 %) nafar o'quvchi esa she'riy parchadagi she'riy sanatni topa oldi, ham undagi o'xshatishni izohlab berdi. 2 (7 %) nafar o'quvchi esa hech qanday fikr bildira olmadilar.

O'quvchilarning bilimini sinash uchun berilgan test topshiriqlariga esa 9 (33 %) nafar o'quvchi berilgan 5 ta savolning hammasiga to'g'ri javob bera oladi, 16 (59 %) nafar o'quvchi esa 3-4 ta savolga to'g'ri javob bera oldi. Qolgan 2 (7 %) nafar o'quvchi topshiriqlarning 1-2 tasiga to'g'ri javob bera olgan.

Olib borilgan matematik tahlil asosida tajriba-sinov guruhining "Saba'i sayyor" da fanlar aro uyg'unlikka oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari quyidagidek darajada deb topildi. Ya'ni, o'quvchilar o'rganilayotgan topshiriqlardagi asosiy mohiyatni anglashga qiynalishdi, asosiy e'tiborni ikkinchi darajali belgi, xususiyat, faktlarga qaratishdi, analiz, sintez, umumlashtirish usullarini qo'llay olishmadi, bunda har doim o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lishdi, ko'pincha tayyor yechimlardan foydalanishga moyilliklari sezildi.

Biz tavsiya etgan usullar, o'tilgan ochiq darslar, olib borilgan tushuntirish ishlaridan so'ng o'quvchilarning ma'no ko'chish turlariga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini sinash maqsadida guruhdan oldingi topshiriqlarga o'xshash topshiriqlardan iborat bo'lgan nazorat ishlarini olish tashkillashtirildi. Ushbu nazorat ishlari 29 nafar o'quvchi bilan olib borildi.

Nazorat uchun berilgan 1-topshiriqda, ya'ni berilgan badiiy matn tarkibidagi notog'ri fikrlar orasidan tog'ri fikrni aniqlash topshirig'ini 14 (48 %) nafar o'quvchi tog'ri fikrni aniqlay olganlar, notog'ri fikrning bir nechtasini ko'rsatganlar, 9 (31 %) nafar o'quvchi esa topshiriqni to'g'ri bajarib, tog'ri va notog'ri fikrlar sonini to'g'ri ko'rsatdilar. 6 (21 %) nafar o'quvchi esa to'g'ri va notog'ri fikrlarni aralash holda ko'rsatganlar.

Keyingi 2-topshiriqda esa o‘quvchilar she‘riy parchadan talmeh san’atiga asos bo‘lgan tarixiy shaxs otlarni va geografik joy nomlarini topish so‘ralgan edi. Berilgan topshiriqni 12 (41 %) nafar o‘quvchi matn tarkibidagi tarixiy shaxslar va joy nomlarini aniqlay oldi, ularga tegishli izohni ham bera oldi. 12 (41 %) nafar o‘quvchi matn tarkibidagi tarixiy shaxs va joy nomlarini aniqlay oldi, ammo unga tegishli izohni noto‘g‘ri berdi. 5 (18 %)nafar o‘quvchi esa talmeh san’atiga asos bo‘lgan tarixiy shaxs va joy nomlarini aniqlash va izohlashda xatoliklarga yo‘l qo‘ydi.

Uchinchi topshiriqdagi test savollariga javob berishda guruhdagi o‘quvchilarning 11 (38 %) nafari berilgan test topshiriqlarning barchasiga to‘g‘ri javob bergan bo‘lsalar, 14 (48 %) nafari 3-4 ta savolga to‘g‘ri javob bera oldilar. 4 (14 %)nafar o‘quvchi esa 1 ta yoki 2 ta savolga to‘g‘ri javob berganlar.

To‘rtinchi topshiriqda berilgan badiiy matn tarkibida tushirilib qoldirilgan so‘zlarni toping topshirig‘ini esa 11 (38 %) nafar o‘quvchi to‘g‘ri bajara oldi. 15 (52 %) nafar o‘quvchi esa bitta yoki ikkita so‘zni topa olmaganlar 3 (10 %) nafar o‘quvchi esa faqat uchta yoki to‘rtta javob topa oldilar

Biz ushbu matematik tahlil natijalarini o‘zaro solishtirish imkoniyatini yuzaga keltirish maqsadida quyidagi jadvalga joylashga harakat qildik.

O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari (foiz hisobida, birinchi natija)		
	Yuqori	O‘rta	Quyi
27	23 %	62 %	15 %
O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari (foiz hisobida, keyingi natija)		
	Yuqori	O‘rta	Quyi
29	41,2 %	43 %	15,8 %



## XULOSA

Ta'lim jarayoni barcha davrlarda ham kishilik jamiyatining barcha erishgan yutuqlari, yangiliklari va kelgusi taraqqiyotining asosiy omili hisoblangan. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni imkoniyati kengligi va o'ta xushyorlik bilan amalga oshirilishi isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Aynan ta'limga oid shart-sharoitlarni mukammalroq shakllantirish uchun bir qator izlanishlar muhimligi bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishimiz "Sab' ai sayyor" da fanlararo uyg'unlik masalasiga bag'ishlangan ekan, eng avvalo biz birinchi **Uzluksiz ta'limda integratsiyaning o'rni va ahamiyati** bobida integratsiya haqida nazariy ma'lumot va uni o'qitish usullarining ilmiy-metodik adabiyotlarda yoritilishi hamda o'quvchilarning bilimlarini oshirish imkoniyatlari yuzasidan dastur va darsliklar tahliliga e'tiborimizni qaratdik. Biz tanishgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Fanlararo uyg'unlik masalasi ilmiy jihatdan jahon va o'zbek olimlari tomonidan yetarlicha o'rganilgan. Mana shu o'rganilgan nazariy ma'lumotlar asosida o'zbek adabiyotini o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqib, fanlararo uyg'unlikning ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, o'quvchilarning olib borilayotgan mashg'ulotlarda faollashtirish uchun ushbu mavzu bilan bog'liq bo'lgan bir qancha innovatsion usullarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fanining muhim vazifalaridan biri degan xulosaga keldik.

Dastur va darsliklar tahlili olib borilganda esa umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar 7-sinfda Alisher Navoiyning "Sabai sayyor" dostoni haqidagi bilimlar bilan tanishishi aniqlandi. Darsliklarda ushbu mavzu bilan bog'liq savol va topshiriqlar berilgan bo'lib, ularni har bir o'qituvchi o'zining ijodiy yondashuvi yordamida boyitgan holda tashkillashtirishi mumkin. Ayniqsa, biz yuqorida alohida ta'kidlab ko'rsatgan savol va topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi adabiyotimizning qiziqarli ekanligiga, o'tilayotgan dars yoki mashg'ulotda fanlararo uyg'unlikning qay darajada muhim ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ladi.



Bundan tashqari, xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan bog‘liq yoki tilshunoslik kabi fanlar bilan bog‘liq bo‘lgan savol va topshiriqlarni bajarish davomida o‘quvchilar adabiyotimizdagi she‘rlar yoki badiiy asarlar tahlilida boshqa fanlarning aloqasini ko‘rib, integratsiyaning juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilib oladilar.

Ikkinchi bob **“Sab‘ai sayyor” dostonini o‘rganishda fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi**”ga bag‘ishlangan bo‘lib, mumtoz adabiyotlarda fanlararo integratsiyadan foydalanish ta‘lim sifatini yaxshilashga yordam berar ekan. Adabiyot darslarida mumtoz asarlar yuzasidan bilimlarni chuqurlashtirish va o‘quvchilarning faolligini oshirishda fanlararo integratsiyani amalda qo‘llash uchun ta‘lim tizimidagi barcha fanlarning adabiyot bilan bog‘liq ma‘lumotlarini tanlab olishda materiallarning o‘zlashtirilishiga, adabiy ta‘limda o‘rganilayotgan mumtoz asarning boshqa fanlar bilan bog‘liqligini amaliy jihatdan isbotlay olishga va ana shu bog‘liqlikni ta‘minlashda bevosita ilmiy mantiqqa, davr bilan hamohangligiga e‘tibor qaratishga harakat qildik

Alisher Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostonida turli xil fanlar kesishmasini ko‘rishimiz mumkin

Adabiyot darslarida har bir mavzuni qiziqarli va o‘quvchining bilim olishiga va o‘quvchi tafakkurining hissiy-ta‘siriy jihatdan boyishiga ko‘mak beruvchi savol va topshiriqlarni, turli xil o‘yinlarni tashkillashtirish imkoniyati mavjudligi aytib o‘tildi. Bu esa o‘qituvchidan juda katta ijodkorlik, mahorat talab etadi. Yuqorida biz fanlararo integratsiyani o‘qitish orqali o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va so‘z boyligini oshirishga qaratilgan darslarni “Venn diagrammasi”, “Qiyosiy tahlil”, “Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldir”, “Bumerang”, “Kamalak”, “Izohini top”, “Suratlar so‘zlaganda”, “uch yolg‘on va bir haqiqat”, “Kim chaqqon?”, “Zehnli kitobxon” kabi usullar bilan boyitish mumkinligi haqida tavsiyalar berib o‘tdik.

Uchinchi bob esa **“Ishning amaliyotga tatbiqi”** deb nomlandi va ushbu bobda “Sab‘ayi sayyor”da fanlararo integratsiyani o‘rganish orqali o‘quvchilarning tafakkurini oshirishga doir ochiq dars ishlanmasi, tadqiqot natijalarini tajriba-

sinovdan oʻtkazish uchun tayyorlangan materiallar va olib borilgan amaliy ishlar boʻyicha tahlil natijalari koʻrsatildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari samaradorlikni kafolatlashi, tizimlilik va izchillikni taʼminlashga xizmat qilishi, adabiyot darslarida integratsiyadan foydalanish taʼlim samaradorligini oshirishga va oʻquvchilarning tafakkurini oʻsishiga olib kelishiga eʼtibor qaratilishi lozimligi haqidagi tadqiqot farazini toʻliq tasdiqladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Каримов И.А. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
5. Каримов И.А Баркамол авлод орзуси. –Тошкент: Шарқ, 1997.
6. Alisher Navoiy. Xamsa. –Toshkent: Sharq, 2009.
7. Абдуғафуров А. Навоий сатираси. –Тошкент: Фан, 1966.
8. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. –Тошкент: Фан, 1995.
9. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Фан, 1976.
10. Иномхўжаев С. Алишер Навоий ва бадиий сўз санъати // Ўзбекистон маданияти. –Тошкент, 1966.
11. Yusupova D. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.
12. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати, –Тошкент: Фан, 1979.
13. Mavlonova R.A. Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. –Toshkent: G'.G'ulom, 2013.
14. Umumiy o'rta ta'limning adabiyot fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. –Toshkent, 2017.
15. Niyozmetova R. H. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish. –Toshkent: Fan, 2007.
16. Qozoqboy Yo'ldosh, Begali Qosimov, Valijon Qodirov. Adabiyot 7-sinf uchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi, 2014.
17. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим. –Toshkent: “Sano standart”, 2015.

18. Шайхзода М. Навоийнинг фалсафий қарашлари ва поэтик маҳорати ҳақида. –Тошкент, 1978.
19. Ўзбек адабиёти тарихи. Муаллифлар гуруҳи. 5 томлик. 2-том. –Тошкент, 1977.
20. Хайитметов А. Творческий метод Навои. –Ташкент, 1965.
21. Каюмов А. П. Алишер Навои // История всемирной литературы: В 9 томах. –Ташкент: Наука, 1985.

*Internet saytlari:*

22. [15.http://www.Kitob.uz](http://www.Kitob.uz):
23. <http://www.pedagog.uz>.
24. <http://www.ziyonet.uz>.
25. [www.google.ru](http://www.google.ru)
26. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
27. [www.dic.academic.ru](http://www.dic.academic.ru)
28. [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)
29. [www.turklib.com](http://www.turklib.com)